

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 4

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)

Isa Habibeyli (Ozarbayjon)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Vahit Turk (Turkiya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Nazef Shahrani (AQSh)

Boqijon To'xliyev

Muhammadjon Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkiya)

Qosimjon Sodiqov

Zulxumor Xolmanova

Mustafa O'ner (Turkiya)

Nurboy Jabborov

G'aybulla Boboyorov

Kimura Satoru (Yaponiya)

Imran Ay (Turkiya)

Aftondil Erkinov

Nadir Mamadli (Ozarbayjon)

Rashid Zohidov

Otabek Jo'raboyev

Bulent Bayram (Turkiya)

Qo'ldosh Pardayev

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

Oysara Madaliyeva

Hilola Nazirova

MUNDARIJA**MATNSHUNOSLIK****Bahriddin Umurzoqov**Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning voizlik,
xattotlik va kotiblik faoliyati

4

ADABIYOTSHUNOSLIK**Dilnavoz Yusupova**Fanoyi Sheroziy "Tarixi muluki Ajam"
asarining usmonli tarjimoni sifatida

16

Marg'uba AbdullayevaMaqsad ul-atvor" dostoni va uning g'oyaviy-
badiiy xususiyatlari

29

LINGVISTIKA**Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri

42

To'lqin Tog'ayevAshurali Zohiriy – jadid matbuotining
atoqli vakili

63

Ma'rufjon DustmurodovUyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun
II bitigi: leksik birliklarning badiiy
funksiyasi

76

MATN**Aftondil Erkinov**"Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy" dagi
"Ohista-ohista" radifli g'azallar

140

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLGY****Bahriddin Umurzoqov**

Ali Safi Kashifi Hiravi's Activities as a Preacher, Calligrapher, and Scribe 4

LITERATURE**Dilnavoz Yusupova**

Fanoyi Shirazi as the Ottoman Translator of Tarih-i Muluk-i Ajam 16

Marguba AbdullaevaThe Masnavi *Maqsad al-Atwar* and Its Ideological and Artistic Features 29**LINGUISTICS****Tanju Seyhan**

The Function of Verbs in the Stylistic Framework of Ali Shir Navai 42

Tulkin Togaev

Ashuralli Zohiri is a prominent representative of the Jadid press 63

Ma'rufjon Dustmurodov

Karabalgasun II inscription of the Uygur Khaganate: literary function of lexical units 76

TEXT**Aftondil Erkinov**

Ghazals with the refrain "Ohishta-ohishta" in "Majmuat ush-shuarayi Firuzshahi" 140

MATNSHUNOSLIK
TEXTOLOGY

Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning voizlik, xattotlik va kotiblik faoliyati

Bahriddin Umurzoqov¹

Abstrakt

Maqolada XV–XVI asrlarda Hirotida yashab ijod etgan Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning (vafoti – 939/1532) ilmiy-ijodiy faoliyati keng qamrovda tadqiq etilgan. Iste’dodli adib, tazkiranavis va manoqibnavis, o‘z davrining mashhur voizi bo‘lgan bu ijodkor-olimning faoliyati uning zamondoshlari va rahnamolari mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xondamir va boshqalarning ilmiy-adabiy faoliyati hamda ustozlik qirralari bilan bog‘lab tahlil etilgan. Bu esa o‘sha davrdagi Hirot ilmiy-adabiy muhiti haqida muayyan tasavvurlarni shakllantirish uchun ham xizmat qilgan. Muallif asosiy e’tiborni Aliy Safiy Hiraviyning hozirgacha ilmda maxsus tadqiq etilmagan noyob qobiliyati – xattotlik faoliyati va uning bu boradagi mehnati samarasi – “Sharhi Fusus al-hikam” qo‘lyozmasi kitobatiga qaratadi. Yangi topilgan ma’lumotlar asosida Aliy Safiyning savodli, xos kotib sifatidagi faoliyatini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: *“Sharh-i Fusus al-hikam”, dastxat nusxa, “Sharh-i Mullo” qo‘lyozmasi, “Xatti Qur‘oniy”, nasx xati, Mavlono Jomiy, ustozlik kull (ilm-u ijodda, ma‘rifatda barchaga ustoz).*

Kirish

O‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligining darg‘asi, navoiyshunos olim, professor Hamid Sulaymon Navoiy shaxsi va zakosi haqida fikr yuritib: “Jahon adabiyoti tarixida shunday ulug‘ so‘z san‘atkorlari borki, ulardan har birining ijodiyoti umumbashariy madaniyat taraqqiyotida butun bir davrni tashkil etadi. Ayni zamonda ustod sifatida ular o‘zlaridan keyingi avlodlarga yangi g‘oyaviy-badiiy yo‘nalish beradilar”]Навоий 1963, 6] – deb yozgan edi.

Darhaqiqat, Nuruddin Abdurahmon Jomiy (vaf. 897/1492) va Alisher Navoiy kabi ulug‘ shaxslar zamondoshlaridan ko‘pchili-

¹Umurzoqov Bahriddin Safarovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor, Yangi asr universiteti.

E-pochta: bahrumr_nur@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-8870-156X

Iqtibos uchun: Umurzoqov, B. S. 2025. “Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning voizlik, xattotlik va kotiblik faoliyati”. *Oltin bitiglar* 4: 4 – 15.

kning ulug'vor ijodiy ishlariga sabab bo'lgan. Alisher Navoiyning moddiy homiyligi, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy rahnamoligi natijasida barakali ijod qilganlardan biri – Mavlono Husayn Voiz Koshifiy (vaf. 910/1504) va uning o'g'li Faxruddin Aliy Safiy (vaf. 939/1532)dir.

Yetuk manoqibnavis, “Xojagon tariqati naqshbandiya-ahroriyya suluki tazkirachisi”, deya ta'riflangan Mavlono Faxruddin Aliy Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiy o'z davrining yetuk allomalaridan, sharq mumtoz adabiyotining taniqli vakillaridan biridir.

Faxruddin Aliy Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiy faoliyati

Sharq mumtoz adabiyotida to'rtta nisba (nom yoki taxallus) bilan tilga olinadigan adib yoxud shoir kam uchraydi. Bu ijodkorning atalishida, asarlari muqaddimasidagi o'zini tanituvida (imzosida) mana shunday o'ziga xoslik mavjud va ular quyidagilardir: “Safiy”, “Koshifiy”, “Hiraviy”, “Faxriy”.

“Safiy” (الصفي) taxallusini shoirga ustoz Mavlono Abdurahmon Jomiy bergani naql qilingan. Aslida, Faxruddin Aliy o'ziga “Ziyo(uddin)” deb taxallus tanlagan va bu haqda Abdurahmon Jomiyga aytganida, Jomiy bunday javob qilgan: “Sen “Ziyo” taxallusingni o'g'limga (Yusufga – B.U.) bergin – uni Ziyuddin Yusuf, deb ataymiz, o'zingga esa “Safiy” deb taxallus qo'ygil!”. Nazarimizda, Mavlono Jomiy bu taxallusni “... va ul zot bilan tabarruklanilgay» (و يتبرك به--) niyati va umidida Janob Rasululloh alayhissalomga nisbat berilgan muborak ismlar orasidan tanlab bergan. Chunki “Daloil al-xayrot” hamda “Avrodi Qur'oniy” kitoblarida Hazrat Muhammad alayhissalomning 203ta “Asmo ul-husno”si (اسماء محمد صلى الله عليه و سلم), ya'ni *ma'nosi chiroyli ismlari* berilgan bo'lib, mazkur muborak ismlarning 31-chisi “Safiyy” (صَفِيٌّ) dir. Yurtimizda zikr ahli tomonidan har tongda o'qiladigan yana bir vird kitobi borki, u Sayyid Aliy Hamadoniyning “Avrodi fathiya” (اوراد فتحية) vird-kitobidir. Mazkur asarning salovot faslida ehtirom va ta'zim xitobi sifatida ushbu ibora keltirilgan: “As-salotu vas-salomu alayka yo sayyidiy – yo Safiyalloh!” (الصلوة والسلام عليك يا سيدي يا صفي الله).

Aliy Safiyning yashab ijod etgan joyi, vafot etgan va dafn qilingan yeri Hirot bo'lgani uchun bu inson “al-Hiraviy” (الهروي) deb ham atalgan. Ba'zi xorij tavsiflarida, masalan, Turkiya qo'lyozma asarlar to'plamida Aliy Safiy otasi Husayn Voiz Koshifiy Sabzavoriyning “al-Bayhaqiyy” (البيهقي) , “al-Valiy” (الولي) nisbalari bilan ham yanglish zikr etilgan.

Aliy Safiy boshqa taxalluslar bilan ham, masalan “Faxriy” (فخرى) taxallusi bilan ham tanilgani haqida ma'lumotlar bor. Ammo Faxruddin Aliy Safiy aksar g'azallari, she'rlari va nasriy asarlarida o'zini “Safiy” (الصفي) taxallusi bilan tanitgan.

Otasi Husayn Voiz Koshifiyning vafotidan keyin Hirotidagi eng katta jome' masjididagi va'z va xitobat ishini Aliy Safiy yuritgan. Bu

haqda “Habib as-siyar” asari muallifi Mavlono Xondamir (taval. 1473 – vaf. 1534) quyidagilarni yozadi: “929 hijriy sana (mil. 1522-y.) Mavlono Kamoluddin Husaynning farzandi arjumandi Mavlono Faxruddin Aliy otasi o’rniga qoimi maqom (o’rinbosar – *U. B*) bo’ldi. Jum’a sabohi u Hirot jome’sida – bu jome’ barcha fayz oladigan muborak bir yerdir – xalqqa nasihat qilur, barchani Haqqa da’vat etur. G’oyat xush, balig’, chiroylik nutq qilur va bu xitob-irshodi bilan ko’ngillarga surur baxsh etur...” (....). Ma’lum bo’lmoqdaki, Faxruddin Aliy Safiy ham o’z otasi kabi voizlikda shuhrat qozongan. Hirot jome’si bosh imomi sifatida faoliyat yuritgan.

“Tuhfa-i Somiy” asariga ishlangan miniatyura “Mavlono Faxruddin Aliy Safiyning va’z majlisi” deb nomlanadi. Bu miniatyura Faxruddin Aliy Safiyning Hirot ilmiy muhitida o’ziga xos mavqe’ egasi bo’lganiga dalolat qiladi. Miniatyuradagi rasmda Aliy Safiy markazda tasvirlangan bo’lib, u soqoli qop-qora, qirq-qirq besh yoshli inson qiyofasidir. U kursida o’tirgan holda jamoatga jum’a ma’vizasi asnosida xitob qilmoqda. Aliy Safiy xatoba (va’z ishi, voizlik)da taxminan oltmish yoshlarida o’z otasidek haqiqiy mashhurlikka erishgan, Hirot xalqining, arkoni davlatning, muarrixlar va musavvirlarning nazariga tushgan. Aliy Safiy o’n yildan ortiq vaqt mobaynida Hirotning bosh voizi sifatida faoliyat yuritadi.

Aliy Safiy nafaqat iste’dodli shoir, mashhur tazkiranavis va manoqibnavis, o’z davrida Hirot shahrining mashhur voizi, shuningdek, mohir xattot ham sanalgan. Ijodkor shaxsiyatining ushbu qirradi hozirgacha ilmda maxsus tadqiq etilmasdan kelinayotir.

Quyida Aliy Safiy Hiraviyning ana shu noyob qobiliyati – xattotlik faoliyati va uning samarali mehnati samarasi hisoblangan Mavlono Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub yirik hajmli tasavvufiy asar – “Sharhi Fusus-i hikam” (شرحى فصوص الحكمة) qo’lyozmasi kitobati haqida tafsilotli so’z yuritimiz.

Aliy Safiy Hirot ilmiy va adabiy maktabining yetuk namoyandasi bo’lgan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy Sabzavoriyning o’g’lidir.

O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasida Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning ko’plab asarlar muallifi ekani, O’zR FA ShIda 45 nomdagi asarlarining 197ta qo’lyozma va 75ta toshbosma nusxalari saqlanishi yozilgan.

Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning (1442–1505) allomaligi, ya’ni ko’p ilmlarda, sohalarda asarlar ijod qilgani tafsilotli tadqiq etilgan [Умурзоқов 2018, 41 – 44; Умурзоқов 2019, 14 – 15]. Alisher Navoiy Mavlono Koshifiyini ta’riflar ekan, “Mavlonodin zu fununlik purkor bo’lubtur...” [Навоий 1966, 132] deb yozgan.

Har doim Navoiyning e’tirofida va e’tiborida bo’lgan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy adib, shoir, voiz tarixnavis olim, mufassir sifatida ellikdan ortiq asarlarni meros qoldirgan. Allomaning asarlari juda ham ko’p kitobat qilingan. Husayn Voiz

Koshifiy asarlarining qo'lyozma nusxalari Toshkent qo'lyozma fondlarida besh yuzdan ortiq.

Alloma Voiz Koshifiyning husni xat sohibi bo'lgani esa maxsus o'rganilmagan, tadqiq etilmagan.

Arabiy alifboda yozuv bitgan mashhur adiblar, shoirlar va olimlarning avtograf (dastxat)lari ko'zdan kechirilsa, ulardan ko'pchiligining yozuvlari husnixatdan xoli. Husayn Voiz Koshifiy esa nodir kotib, qilqalam xattot bo'lgan. Bunga uning "Mavohib-i Aliyya" (Hazrat Amir Aliysherga tuhfa) tafsiri qo'lyozmasi dalolat qiladi. Mazkur qo'lyozma kitob O'zR FA ShI asosiy fondida №2181 inv. raqam ostida saqlanadi. Buxoro xonligining oxirgi qozikaloni Sadri Ziyoning qaydiga ko'ra, ushbu qo'lyozma "Muallif dastxatidir" [№2181, 1a].

Navoiy Husayn Voiz Koshifiyning mazkur "Tafsir"i haqida bunday deb yozgan: "Mavlononing tafsiri "Javohir at-tafsir"dur. Baqara surasini bir mujallad bitibdurkim, yuz juz' bo'lg'ay".

Husayn Voiz Koshifiy serqirra ijodkor bo'lgan ekan, uning yagona o'g'li - Aliy Safiy ham o'z otasidek "zu funun"likka, yani allomalikka intilganmi?

Faxruddin Aliy Safiyning xattotlik faoliyati

Faxruddin Aliy Safiy ham adib, shoir, voiz tarixnavis-manoqibnavis olim hisoblanadi. Ammo uning ham husnixat ilmi borasidagi faoliyati tadqiq etilmagan.

Yaqinda Faxruddin Aliy Safiyning otasi Husayn Voiz Koshifiy kabi savodli kotib va qilqalam xattotligiga dalolat qilgan betakror ishlaridan birini aniqladik. Bu ish o'rta asrlar musulmon olamida "Shayxi akbar" nomini olgan zot Muhyiddin ibn Arabiyning "Fusus al-hikam" (فصوص الحكم) asariga Mavlono Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan "Sharh-i Fusus al-hikam" (شرح فصوص الحكم) asarining kitobat qilingan nodir qo'lyozmasidir.

"Sharhi Fusus al-hikam" qo'lyozmasi O'zR FA ShI asosiy fondida №520 inv. raqam ostida saqlanadi. Qo'lyozma jami 265 varaq (530 sahifa)dan iborat bo'lib, uning kolofonida kotib o'zini quyidagicha tanishtirgan [Sharhi Fusus al-hikam, 254]:

و قد تشرّف باتمام كتابه هذه الشرح الشريف العبد الضعيف علي الصفي ابن الحسين
الواعظ الكاشفي ثبته الله تعالى على منهج الصدق و السداد في العمل و القول و الاعتقاد
و نقله من كتاب الذي كان بخط المصنف قدس الله تعالى سرّه و افاض علينا برّه - في
اواسط شهر صفر سنة سبع و تسعمائة

ثم قابلته مع الكتاب المنقول عنه بقدر الوسع و الامكان و الانسان مركّب من النسيان
و قد تمتّ المقابلة في اواخر شهر رمضان سنة سبع و تسمايه من هجرة سيدنا المبعوث
بأشرف الايمان صلوات الله و سلامه عليه ما اختلف الملوان و كزّ الجديان، م

Tarjimasi: *Ushbu muborak "Sharh"ning ko'chirilishi zaif banda Aliy as-Safiy ibn al-Husayn al-Voiz al-Koshifiyning qo'li*


bilan tamomlandi – Alloh ta’olo uni sidq (to’g’rilik) yo’lida, solih amal (ezgu ishlar), ezgu so’zlar va to’g’ri, haq e’tiqodda bardavom aylasin!

(Kotib) bu (matn)ni musannifning – Alloh ta’olo ul zotning sirrini muqaddas (ya’ni, ixlosmandlarini ziyoda) aylasin va bizning ustimizga (ul zotning duolari ila) yaxshiliklar yog’dirsin! – muborak xati bilan bitilgan ilk nusxadan naql etdi, to’qqiz yuz yettinchi sananing Safar oyining o’rtasida.

So’ngra (maxfiy qolmasinkim,) bu kitobni ul zotdan (“Sharh” musannifi, Mavlono Jomiydan kitobat uchun o’zim iltimos ila) qabul qilib oldim. Albatta, kuch va imkon yetguncha (bu ishni bajar-dim), inson nisyon (unutmoqlik)dan tarkib topgandir.

Va muqobala (dastxat nusxa bilan bu nusxani o’zaro solish-tirib chiqish ishi) sharafli iymon bilan yuborilgan Zot Sayyidimiz – toki Qutb yulduzi chiqib botar ekan va hayot davom etar ekan (ana shu muddatda) ul Zotga Alloh ta’oloning to’xtovsiz rahmatlari va salomlari bo’lsin! - hijratlaridan to’qqiz yuz yetti yil o’tganida Ramazon oyining oxirida (batamom) tugallandi”.


Mazkur qo’lyozmaning 1 a va oxirgi 265 a sahifalarida Mavlono Abdurahmon Jomiyning dastxati bilan “Oldso’z” va “So’ngso’z” yozilgan. “Oldso’z” quyidagicha aks etgan:



So'ngso'zda Jomiy hazrat bu "Sharh"ning muqobalasini amalga oshirgan zot - o'zining zabardast shogirdi Mavlono Abdulg'afur Loriyga samimiy minnatdorchilik bildirgan va uning haqiga duoyi xayr qilgan [Sharhi Fusus al-hikam, 264]:

تمت مقابلة هذا الكتاب بيني وبين صاحبه وهو الاخ الفاضل والمولى الكامل والرأى الصايب والفكر الثاقب رضى الملة والدين عبد الغفور استخلصه الله سبحانه لنفسه ويكون له عوضا عن كل شيء، في اواسط شهر جمادى الاولى المنتظمة في سلك شهر سنة ست وتسعين وثمانمائه و انا الفقير عبدالرحمن بن احمد الجامى عفى عنه

Quyidagi suratda "So'ngso'z" aks etgan:



Demak, bu asarning oxirgi tahrir ishlari hijriy sananing sakkiz yuz to'qson oltinchisi (mil. 1490-y.) Jumod ul-oxir oyi o'rtasida tamomlangan.

Bu nusxa Mavlono Abdulg'afur Loriy uchun maxsus ko'chirilgan. Aliy Safiy esa Mavlono Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan "Sharh-i Fusus al-hikam" asarining kotibi va muharriri bo'lish sharafiga sazovor bo'lgan.

Zero, shundan so'ng kitobning Aliy Safiy tomonidan ham tahrir qilinganiga doir ma'lumot qayd etilgan:

حرّره الفقير على بن الحسين الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى فى اواخر شهر ربيع الآخر لسنة ثلث عشر و تسعمائة

م

"Sharh-i Fusus al-hikam" asari yirik hajmli asar - 265 varaq (530 sahifa). Qo'lyozma hoshiyasida Mavlono Jomiyning, Mavlono Abdulg'ofur Loriyning izohlari, qaydlari bitilgan. Bu qo'lyozma-

ning naqadar diqqat va ehtimom bilan kitobat qilingani, qayta-qayta tahrirdan o'tkazilganiga dalolat qiladi.

"Rashahot"da bir necha o'rinda, masalan, "Hazrat Maxdum quddisa sirruhu (Mavlono Abdurahmon Jomiy – U. B.)dan eshitilgan ma'rifatli so'zlar bayoni", "Hazrati Eshon (Xoja Ubaydulloh Ahror) dan eshitilgan ma'rifatli so'zlar bayoni" boblarida rashhalarda Ibn Arabiyning "Fusus al-hikam" asaridan ko'p misollar keltirilgan va ular sharhlangan. Demak, ma'lum bo'lmoqdaki, Aliy Safiy "Sharhi Fusus al-hikam"ni kitobat qilish bilan kifoyalanmagan, balki mazkur asardan kitobxonlar bilishi zarur bo'lgan va muhim hisoblangan bir qancha ma'lumotlarni o'z asari "Rashahot"da keltirgan.

Masalan, Ibn Arabiy "Fusus al-hikam"da "Har kim Meni tushida ko'rsa, u kimsa Meni o'ngida, albatta, ko'radi" mazmunidagi hadisi sharifni keltirgan. Mavlono Jomiy esa mazkur hadisi sharifni sharhlaydi. Jomiyga ko'ra, ushbu hadisi muborakdagi "Meni tushida ko'rgan o'ngida ham albatta ko'radi" iborasini "Meni tushida ko'rgan shuni bilsinki, u Meni aniq ko'ribdi," shaklida sharhlagan [Sharhi Fusus al-hikam, 264].

Aliy Safiy "Sharh-i Fusus al-hikam" asari nomini "Rashahot"da ko'p o'rinlarda keltirgan. Bu asarga Xojagon azizlari tomonidan berilgan ta'riflarni ham bayon qilgan. Bunga Xoja Abu Nasr Porsodan keltirilgan bir naqlni misol qilib ko'rsatish mumkin:

"Va yana Xoja Burhoniddin Abu Nasr Porso quddisa sirruhu edilar va ul zotga hazrat Xoja Abu Nasrning suhbatlari ko'b ittifoq tushubdir. "Nafahot ul-uns"da yozibtururlarkim, bir kun alarning majlisi shariflarida Hazrat Shayx Muhyiddin ibn Arabiy quddisa sirruhuning zikri va alarning musannifotlarining zikri o'tar edi. O'z volidi buzrukvorlaridan naql ettilarkim, alar aytur erdilar: "Fusus" jon erur, "Futuhot" esa dil!"

Va yana muni ham aytdilarki: "Har kishi "Fusus"ni yaxshi bilsa, anga Hazrat Payg'ambar sallohu alayhi va sallam mutobaatlarning do'iyasi qaviy aylanur" [Навойй 1963, 184].

Ushbu parchadan ma'lum bo'lmoqdaki, Xoja Muhammad Porso o'z ilmiy, ma'rifiy suhbatlari asnosida Shayx Muhyiddin ibn Arabiy haqida, albatta, ehtirom bildirib to'xtalar ekan.

Xoja Muhammad Porsoning o'g'li Abu Nasr Porso o'z otasidan naql qilishiga ko'ra, ul zot "Fusus" asarini haqida gapirganida: "Fusus" (asari) jon erur, "Futuhot" (asari) esa dil!" der ekan.

Bu ta'rifdan nima ko'zda tutilgani, ya'ni murod nima ekanini yana ul zot – Xoja Muhammad Porsoning o'zi bayon qilgan ekan: "Kimki "Fusus" asaridan yaxshi xabardor bo'lsa, unga Hazrat

Payg‘ambarimizga – sallohu alayhi va sallam! – ergashmoq, ya‘ni ul zotning muborak sunnatlarini mahkam tutmoq, sunnati mutohharani tiriltirmoq istak-xohishi kuchli bo‘ladi”.

Xojagon – naqshbandiyya tariqati mansublarining iymon, ixlos va ma‘rifat borasidagi xos afzalligi ham aslida mana shunda. Ya‘ni, ul zotlar Hazrat Payg‘ambarimizga – sallohu alayhi va sallam! – ergashmoq, ya‘ni ul zotning muborak sunnatlarini mahkam tutmoq, sunnati mutohharani eng go‘zal, eng chiroyli tarzda tiriltirmoq – sunnat amallarni o‘z hayotlariga joriy qilmoq va ana shu tarzda barchaga chiroyli, komil o‘rnak bo‘lmoq istak-xohishi, niyati bilan yashaydilar.

Bu ma‘lumot orqali bizga Xojagon mashoyixining, ayniqsa, Xoja Ubaydulloh Ahror va Mavlono Abdurahmon Jomiyning Shayx Muhyiddin ibn Arabiy asarlariga, xususan, uning ”Fusus” hamda ”Futuhot” asarlari mutoalasiga aslo befarq bo‘lmaganlari ma‘lum bo‘ladi.

Aliy Safiyning ma‘lumot berishicha, Mavlono Abdurahmon Jomiy Samarqandga bir safar Xoja Ubaydulloh Ahror huzuriga Shayx Muhyiddin ibn Arabiy asarlaridagi ba‘zi nozik iboralarni ul zot sharhlab berishi iltimosi bilan kelgan [Paxaxot 2004, 18].

”Sharh-i Fusus al-hikam” asarini kitobat qilish Aliy Safiy uchun, eng avvalo, Mavlono Jomiy xizmatida bo‘lish baxtini ta‘minlagan imkoniyatdir. Aliy Safiyga ushbu imkoniyat keyinchalik o‘z shoh asari ”Rashahot”ning ham mazmunli va ma‘nodor bo‘lishida qo‘l keladi.

Shu o‘rinda yana bir muhim jihatga e‘tibor qaratish zarur. Mavlono Husayn Voiz Koshifiy va uning o‘g‘li Faxruddin Aliy Safiyga xattotlikda, kotiblikda kim o‘rnak va namuna bo‘lgan?!

Ota va o‘g‘il Koshifiylarga serqirra ijodkor bo‘lishlarida o‘rnak va namuna bo‘lgan zot Mavlono Abdurahmon Jomiydir.

Abdurahmon Jomiy adib, shoir, tarixnavis va manoqibnavis, mufassir va muhaddis, zabardast tilshunos olim hisoblanadi. Abdurahmon Jomiyning mazkur yo‘nalishlardagi ijodi, ilmiy merosi tadqiq qilingan. Ammo mohir qilqalam xattotligi ilmda alohida o‘rganilgan.

O‘zR FA ShI asosiy fondida Abdurahmon Jomiy tomonidan kitobat qilingan o‘ndan ortiq qo‘lyozma kioblar mavjud.

Navoiyshunosligimizda ”Navoiy albomi” deb nomlanuvchi ”Majmu‘ayi ruqu‘ot” (Maktublar, nomalar to‘plami)dagi mavlonj Jomiyning dastxatlari murakkab mulloyi xatiga dalolat qiladi. ”Tafsir-i Xoja Muhammad Porsu”dagi Mavlono Jomiy qalamiga

tegishli bo'lgan uch sahifa kitobat va mazkur "Sharh-i Fusus al-hikam" asari "Oldso'z" va "So'ngso'z" bitilgan sahifalardagi bitiglar]5, 26[esa Abdurahmon Jomiyning mohir xattot bo'lganini bildiradi. Quyidagi foto-rasmda "Sharh-i Mullo" qo'lyozmasining Jomiy hazrat qo'li bilan ko'chirilgan nusxasi, ya'ni avtograf nusxaning 1 b – 2 a hamda 51 b – 52 a sahifalari aks etgan:

Ushbu dastxat aks etgan fotosuratlardan ham yaqqol ko'rinib turibdiki, Mavlono Jomiy nasx xatida, boshqacha qilib aytganda, "Xatti Qur'oniy" bo'lgan nasx xatini nafis yozish borasida mohir xattot bo'lgan.

Mavlono Jomiy nafaqat ilm-u ijodda, hatto xattotlikda ham o'z zamondoshlariga, shogirdlariga, o'z ixlosmandlariga chiroyli namuna, o'rnak bo'lgani, ta'bir joiz bo'lsa, "*ad-Dollu ala al-xayrika fo'ilih*" (الدال على الخير كفاعله) hadis-i sharifida (Tarjimasi: Ezgu ishga sababchi bo'lgan odam o'sha ishni bajargan kabidir) bayon qilingan abror, yani solih, yaxshi, taqvodor zotlardan ekani ma'lum bo'lmoqda.

Mavlono Jomiy o'z davrida zamonning fuzalosi va ulamosi uchun ustozni kull, ya'ni ilm-u ijodda, ma'rifatda barchaga ustoz maqomida edi.

Abdurahmon Jomiy shaxsiyati, fikrlari, ma'rifati, irfonidan kelib chiqib, Husayn Voiz Koshifiyini, Alisher Navoiyini, Aliy Safiyini va boshqa Hirot adabiy va ilmiy muhitining barcha zabardast vakillari ijodini to'g'ri anglash, to'g'ri talqin qilish mumkin. Agar Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va ayniqsa, Mavlono Abdurahmon Jomiy ma'rifati, ilm-u ijodini yetarlicha bilmasak yoki to'g'ri baholay olmasak, u zotga zamondosh qalam ahli ijodini, ul zot ixlosmandlari qarashlarini, maqsadlarini ham to'g'ri tushunish, to'g'ri baholash imkonsizdir.

Mavlono Jomiy o'z zamondoshlarining ijodlariga, ilm-u irfonlariga g'oyat kuchli ta'sir o'tkazgan ana shunday nodir shaxsiyat, betakror zotdir.

Nazarimizda Aliy Safiyga ham ilm-u ijodda va hatto xattotlikda ham eng kuchli ta'sir o'tkazgan zot, otasi Husayn Voiz Koshifiy emas, balki Mavlono Abdurahmon Jomiydir.

"Rashahot" asarining "Hazrati Maxdumning ahvoli va ma'orifi, xoriq ul-odotlari zikrlari bayonida" boblarida Aliy Safiy ba'zan ochiq-ravshan, ba'zi o'rinlarda esa nozik ishoralar bilan Mavlono Abdurahmon Jomiyga o'zining samimiy munosabatini, yuksak ehtiromini bildiradi va ul zotga chuqur hurmatini orifona yo'lda bayon qilishga intiladi.

"Rashahot" Mavlono Jomiy va Xoja Ahror vafot etganlaridan

keyin yoziladi. “Rashahot” asaridan shuni aniq anglash mumkinki, xuddi Navoiy kabi Aliy Safiy ham sohibi valoyat boʻlgan (valiy zotligi bilan tanilgan) bu ikki zotning vafotlari sabab ayriliq firoqiga umrining oxirigacha koʻnikaolmagan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy:

Meni men istagan oʻz suhbatigʻa arjumand etmas,

Meni istar kishini koʻnglum pisand etmas, – deb yozgan edi.

Aliy Safiy esa “Rashahot” muqaddimasida ana shunday kayfiyatda ushbu sheʼriy misralarni bitgan:

Gul fasli oʻtdi, gulzor xarob boʻldi,

Men endi gul boʻyini qaerdan izlay?! Gulobdan(mi)?...]Рашаҳот 2004, 15[.

“Rashahot” asari matnida ham ikki muborak zot – Xoja Ubaydulloh Ahror va Mavloni Abdurahmon Jomiy manobqlari eng koʻp oʻrin olgan. Bu Aliy Safiyning oʻz umri davomida avvalo eʼtiqodda, soʻngra ilm-u ijodda koʻproq qaysi nodir shaxsiyatlarga, yaʼni yuksak maʼnaviyatga va ulkan maʼrifatga ega zabardast siymolarning taʼsirida boʻlganiga ochiq dalolat qiladi.

Navoiyshunosligimizda Sultonali Mashhadiy, Abduljamil Kotib va boshqalar uchun “Navoiyning kotiblari” iborasi qoʻllaniladi. Taʼbir joiz boʻlsa, “Mavloni Jomiyning kotiblari” ham boʻlgan va oʻsha kotiblar orasida Aliy Safiy birinchi oʻrinda turadi. Chunki Aliy Safiyning Mavloni Jomiy asarlaridan nusxa koʻchirishi shu birgina “Sharhi Fusus al-hikam” asari bilan cheklanmagan. Aliy Safiy tomonidan Mavloni Jomiy qalamiga mansub “Shavohid an-nubuvva” (Paygʻambarlik alomatlar) asarining gʻoyat chiroyli nastaʼliq xatida kitobat qilingan bir nodir nusxasi bor. Mazkur qoʻlyozma ham OʻzR FA ShI asosiy fondida saqlanadi.

Xulosa

Mumtoz adabiyotimiz oʻziga xos badiiyatga, teran mazmun-mohiyatga, ulugʻ maʼrifatga, kuchli taʼsirga ega boʻlgan nafis adabiyotdir. Bu adabiyotning deyarli barcha durdona asarlari, eng avvalo, sogʻlom ishonch-eʼtiqodning, soʻngra pokdomonlik, husni xulq, yuksak insoniy fazilatlarining oliy samarasi oʻlaroq, yana bunga qoʻshimcha sifatida ulugʻ isteʼdodlarning bir-birlariga oʻzaro begʻaraz, ijobiy musobaqalari va taʼsirlari natijasida paydo boʻlgan. Mana shu sababdan mumtoz adabiyotimizga qiziqish soʻnggi yuz yillikda tadqiqotchilarni jalb qilib kelmoqda. Ana shunday jahon madaniyati va fani taraqqiyotiga oʻz ijodi bilan ulkan hissa qoʻshgan ijodkorlardan biri Faxruddin Aliy Safiy bin Husayn Voiz Koshifiy

(vaf. 939/1532)dir. Uning ijodi dunyoviy va diniy ilmlarning turli sohalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatli. Faxruddin Aliy Safiy ilmiy-adabiy merosida yuksak fazilatlarga ega bo'lgan insonni tarbiyalash, yoshlarni sog'lom tafakkur va pok axloqqa targ'ib qilish g'oyalari singdirilgan.

Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida Hirot shahri katta jome'sida voiz bo'lgan, shoir, adib, tazkiranavis sifatida tanilgan, shu bilan birga u mohir xattot, savodli xos kotib sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu esa ijodkorning o'ziga xos yana bir iste'dodiga, xattotlik borasida ham nodir qobiliyat egasi bo'lganligiga dalolatdir.

Mumtoz adabiyotimizning yetuk siymolari, olim va fuзалolari, ijodkorlari safidan munosib o'rin olgan Mavlono Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy Koshifiyning shaxsiyati, ilmiy-adabiy merosi, tarjimalari va kitobati namunalari asosida kelgusida yirik monografik tadqiqotlarni amalga osirish manbashunos-tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardandir.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1966. *Мажолисун-нафоис*. 12-жилд. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1963. *Хазоинул-маоний*. Фаройибус-сиғар. Ўн беш томлик. 1 том. Нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. Тошкент.
- Ҳусайн Воиз Кошифий. 2004. *Рашаҳот*. Тошкент.
- Умурзоқов, Б. 2018. “Рашаҳот” асарининг нодир қўлёзма нусхаси”. *Убайдулла Каримов номидаги XV илмий-амалий конференцияси материаллари*, 41 – 44. Тошкент.
- Умурзоқов, Б. 2019. *Фахруддин Алий Сафийнинг илмий-адабий мероси ва унинг “Рашаҳот” асарининг қиёсий-текстологик тадқиқи*. Тошкент: Нурафшон.
- ЎЗР ФА ШИ фонди. Қўлёзма №2181, 1 а.
- Шарҳи Фусус ал-ҳикам*. ЎЗР ФА ШИ фонди. Қўлёзма №520.

Ali Safi Kashifi Hiravi's Activities as a Preacher, Calligrapher, and Scribe

Bahriddin Umurzoqov¹

Abstract

This article presents a comprehensive study of the scholarly and creative activities of Mawlono Fakhriddin Ali Safi Kashifi Hiravi (d. 939/1532), who lived and worked in Herat during the fifteenth and sixteenth centuries. A talented man of letters, tazkira writer, manāqib author, and a renowned preacher of his time, this scholar's activity is analyzed in close connection with the scholarly and literary endeavors, as well as the mentorship roles, of his contemporaries and patrons, including Mawlono Abdurahman Jami, Alisher Navoi, Khwandamir, and others. This approach also contributes to forming a clearer understanding of the scholarly and literary milieu of Herat in that period.

The author places particular emphasis on a unique aspect of Ali Safi Hiravi's talent that has not previously been the subject of specialized scholarly research – his activity as a calligrapher – and on the tangible outcome of his efforts in this field, namely the manuscript copy of *Sharh-i Fusus al-Hikam*. On the basis of newly discovered data, the article elucidates Ali Safi's work as a literate and distinguished scribe.

Key words: *Sharh-i Fusus al-Hikam, autograph manuscript, Sharh-i Mulla manuscript, Khatt-i Qur'ani, naskh script, Mawlono Jami, ustod-i kull (the universal master in knowledge, creativity, and enlightenment).*

References

- Alisher Navoiy. 1966. *Majolisun-nafois*. 12-jild. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1963. *Xazoinul-maoniy. G'aroyibus-sig'ar*. O'n besh tomlik. 1 tom. Nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon. Toshkent.
- Husayn Voiz Koshifiy. 2004. *Rashahot*. Toshkent.
- Umurzoqov, B. 2018. "Rashahot" asarining nodir qo'lyozma nusxasi". *Ubaydulla Karimov nomidagi XV ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*, 41 – 44. Toshkent.
- Umurzoqov, B. 2019. *Faxruddin Aliy Safiyning ilmiy-adabiy merosi va uning "Rashahot" asarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi*. Toshkent: Nura-fshon.
- O'zR FA ShI fondi. Qo'lyozma №2181, 1 a.
- Sharhi Fusus al-hikam*. O'zR FA ShI fondi. Qo'lyozma №520.

¹ *Umurzoqov Bahriddin Safarovich* – Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor, New Century University.

E-mail: bahrumr_nur@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-8870-156X

For citation: Umurzoqov, B. S. 2025. "Ali Safi Kashifi Hiravi's Activities as a Preacher, Calligrapher, and Scribe". *Golden Scripts* 4: 4 – 15.

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**Fanoyi Sheroziy “Tarixi muluki Ajam”
asarining usmonli tarjimoni sifatida**Dilnavoz Yusupova¹**Abstrakt**

Maqolada Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarining XVI asrda usmonli turk tiliga Fanoyi Sheroziy tomonidan qilingan tarjimasi masalalari tadqiq etilgan. Maqola muallifi Fanoyi taxallusli ijodkor haqidagi uchta farazni oʻrtaga tashlaydi va asar nusxalari asosida buni dalillashga urinadi. “Tarjumayi tavorixi muluk” asarining fanga sakkizta nusxasi maʼlum va ulardan yettitasi qoʻlyozma, bittasi matbaa nashr – toshbosmadir. Bu nusxalarning eng qadimgisi 989/1581-yilga tegishli. Tarjimaning asl – tarjimon nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Hozirgacha mavjud nusxalar tarjimon nusxasidan koʻchirilgan. Muallif Alisher Navoiy asari matnini Fanoyi amalga oshirgan tarjima matn bilan qiyoslab, matndagi farqli jihatlarni aniqlaydi. Fanoyi tarjimasida asliyat matni asosan saqlab qolingani, baʼzi maʼlumotlarning qoʻshilishi yoki ayrim oʻrinlardagi qisqartirishlar tarjimonning oʻziga yoki matnni koʻchirgan xattotlarga tegishli boʻlishi mumkinligi xususidagi mulohazalarini bildiradi.

Kalit soʻzlar: *adabiy taʼsir, tarjima, qoʻlyozma nusxalar, matbaa nashr, shohlar tarixi.*

Kirish

Alisher Navoiyning nomi va asarlari hayotlik chogʻidayoq turkiy va forsiy dunyoda mashhur edi. Ayniqsa, uning Usmonli turk adabiyotiga taʼsiri masalasi oʻzbek va jahon olimlari tomonidan eʼtirof etilgan va bu borada koʻplab tadqiqotlar yaratilgan [Levend 1958; Çetindağ 2002; Kleinmichel 2006; Esir 2014; Türk 2021; Yusupova 2021]. Shoir asarlari tilini tushunishga boʻlgan intilish usmonli turk tilida “Abushqa” lugʻatining tuzilishiga olib kelganligi, Navoiy asarlarini mutolaa etish, tarjima qilish va badiiy ijodda uning asarlariga ergashish XVI–XX asrlar mobaynida ham

¹ Yusupova Dilnavoz Rahmonovna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: mumtoza_dil@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

Iqtibos uchun: Yusupova, D.R. 2025. “Fanoyi Sheroziy “Tarixi muluki Ajam” asarining usmonli tarjimoni sifatida”. *Oltin bitiglar* 4: 16 – 28.

davom etganligi Usmonlilar saltanatida shoir asarlariga talabning yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy ijodining Usmonli turk adabiyotiga ta'sirini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: I. Buyuk mutafakkir asarlariga ergashib, asar yozish. II. Shoir asarlarining usmonli turk tiliga tarjimalari. Birinchi guruh o'z ichida yana uch yo'nalishni qamrab oladi: 1) shoir she'rlariga nazira va tazminlar yozish; 2) tazkirachilik yo'nalishidagi ta'sir; 3) "Xamsa" dostonlariga javob yozish.

Shoir asarlarining usmonli turk tiliga tarjimalari masalasi adabiyotshunoslikda u qadar keng tadqiq etilgan emas. Hozirgacha Navoiyning uchta asari usmonli turk tiliga tarjima qilingani haqida ma'lumotlar mavjud. Bular – "Majolis un-nafois" [Turk 2010], "Farhod va Shirin" [Esir 2014] hamda "Tarixi muluki Ajam" asarlaridir. "Tarixi muluki Ajam" XVI asrda Fanoyi tomonidan tarjima qilingan bo'lib, o'zbek va turk adabiyotshunosligida bu tarjima haqida ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan [Salohiy 2006; Altun 2020]. Mazkur tarjima adabiyotshunoslikda "Tarixi Fanoyi" (Tarih-i Fenâyi) yoki "Tarjumayi tavorixi muluk" (Tercüme-i Tevârîh-i Mülûk) nomi bilan atab kelingan.

Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari va uning yozilish tarixi

"Tarixi muluki Ajam" ("Arab bo'lmagan shohlar tarixi") asari Alisher Navoiyning tarixnavislik faoliyatini ko'rsatuvchi manba bo'lib, XV asrning oxirlarida yozilgan. Aslida, bu asar "Tarixi anbiyo va hukamo" bilan birga umumiy tarix kitobining bo'laklari hisoblanadi. Navoiy yashagan davr tarixshunosligi an'anasiga ko'ra, avval payg'ambarlar tarixi, so'ngra to'rt Ajam sulolalari tarixi, keyin Islom davri tarixi berilishi lozim edi. Shundan keyingina zamona tarixiga o'tilgan va Navoiy ushbu qismlardan so'ng Sulton Husayn Boyqaro tarixini yozishni niyat qilgan edi [Qayumov 2011].

"Tarixi muluki Ajam"da Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to'rt sulola: peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar tarixi hikoya qilinadi. An'anaga muvofiq, tarix Odam Ato (a.s.) davriga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Alisher Navoiy mazkur asarda Abdulxayr Nosiriddin Abdulloh bin Umarning "Nizom ut-tavorix", Banokatiyning "Jome' ut-tavorix" va "Devon un-nasab", Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliyning "Nasihah ul-muluk", peshdodiyalar podshohi Hushangga nisbat beriluvchi "Jovidoni xirad", Bu Ali Miskavayhning "Odob ul-arab val-furus", Hamdulloh

Mustavfiy Qazviniyning “Tarixi guzida”, Sharafiddin Ali Yazdiyga nisbat beriluvchi “Muntaxab” kabi manbalardan foydalanadi va ko‘plab ma’lumotlarni shu asarlardan olganini aytib o‘tadi. Risolada shoirlardan Abulqosim Firdavsiy va uning “Shohnoma”siga ko‘proq murojaat qilinadi. Navoiy Iskandar haqidagi qissada xamsanavislar Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviyning qarashlarini ham keltirib o‘tadi.

Asarning asosiy qismi Kayumars ta’rifi bilan boshlanadi. So’ngra peshdodiylar sulolasidan o‘n bitta, kayoniylar sulolasidan to‘qqizta (Iskandarni ham qo‘shib hisoblaganda o‘nta hukmdor), ashkoniylardan sulolasidan o‘n beshta, sosoniylar sulolasidan o‘ttiz uchta, jami – yetmish hukmdorning nomi, ularning tarjumayi holi, hayoti va yuritgan siyosatiga doir ma’lumotlar taqdim etiladi. Deyarli har bir podshoh qissasidan keyin an’anaga muvofiq “she’r”, “bayt” yoki “masnaviy” nomi ostida qissa mazmuniga uyg‘un baytlar ilova qilinadi.

Asarning xotima qismi masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, ellik baytdan iborat. Unda Navoiy bevosita Shoh G‘oziy – Sulton Husayn Boyqaroga murojaat etadi. Uning adolati va saxovatini, inson sifatidagi yuksak xulqini madh qiladi. Shohni yagona javharg qiyoslaydi, shuning uchun ham unga “Nazm ul-javohir” asarini bag‘ishlab yozganini aytadi. Aynan Husayn Boyqaro tarixini bitishi haqidagi niyatini bildiradi:

*Vale azmim emdi budurkim, Xudoy
Agar bo‘lsa umrumg‘a muhlatfizoy,
Chekib turfa tarixingga xomani,
Qilib nuktag‘a tez hangomani.*

Shu tariqa xotima-masnaviyning so‘nggi baytlarida Navoiy shohsiz jahonga omonlik bo‘lmasligini aytib, Husayn Boyqaroga yaxshi tilaklar bildiradi, duosini yo‘llaydi, o‘zi ham duolardan umidvor bo‘lgan ohangda asarni yakunlaydi.

Asarning tarjimoni Fanoyi haqida

“Tarixi muluki Ajam” asarining tarjimoni Fanoyi haqida manbalarda deyarli ma’lumot uchramaydi. O‘sha davrga oid tazkira va tarixiy asarlarda ham tarjima muallifining nomi keltirilmagan. Tarjimaning tanqidiy matnini nashrga tayyorlagan Hilal Oytun Altunning yozishicha, Qohira nusxasidagi qaydlar orasida “Mü’ellif-i in kitāb Monlā Fenāyī rahmetullāhi ‘aleyh” (Ushbu kitobning muallifi mulla Fanoyi rahmatullohi alayh) degan izoh mavjud. Shuningdek, “Monlā Fenayiy” (mulla Fanoyi) nomi Leyden

universiteti kutubxonasi turk qo'lyozmalari katalogiga kiritilgan qo'lyozmaning izohida ham uchraydi [Altun 2020, 27]. Muallif taxallusidan oldin keltirilgan *mulla* sifati tarjimonning diniy ilmlardan yaxshi xabardor olim va tariqat sohibi bo'lganligiga ishoradir.

"Tarixi muluki Ajam" asari haqida ayrim ishoralar keltirilgan ikki tadqiqotda muallifning nisbasi Sheroziy sifatida ko'rsatiladi, lekin uning kimligi, boshqa tarjimalari yoki asarlari haqida ma'lumotlar keltirilmaydi [Altun 2020, 27].

Turk olimi Sodiq Yozarning "Anadolu sahasi klâsik türk edebiyatında tercüme ve şerh geleneği" ("Onado'li klassik turk adbiyotida tarjima va sharh an'anasi") mavzusidagi tadqiqot ishida XVI asrda, usmonlilar sultoni Mehmed Uchinchi davrida yashagan Fanoyi taxallusli tarjimon haqida ma'lumot berilgan [Yazar 2011, 194]. To'liq ismi Xizr bin Hoji Yunus bin Imod bo'lgan bu ijodkor Faxriddin Iroqiyning "Lama'ot" asarini usmonli turk tiliga tarjima qilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif o'zini "... ve ba'de bu müsâfir-i bî-zâd ...Hızır b. Hâcı Yûnus b. 'Îmâd el mülakkab bi-Seyyid Fenâyî Mağnisevî..." (va bu musofir Sayyid Fanoyi Mag'nisaviy taxallusli Xizr bin Hoji Yunus bin Imoddir) deb tanishtirgandan so'ng, zamona hukmdori Sulton Mehmed bin Murod (Mehmed III) va Mahmud poshoni madh etadi. Iroqiy asarining tarjima qilinish sababini izohlar ekan, o'zining ancha vaqt Shayx Ahaveynning xutbalariga ergashib, saboqlariga qatnashganini, bu majlislarda Haq oshiqlarining "Lama'ot"ni tinglash vaqtida arab va fors tillarini bilmaganlikari uchun yetarlicha foyda olmayotganlarini ta'kidlaydi va buni bartaraf etish uchun asarni tarjima qilib, sultonga taqdim etish niyatiga tushadi. Muallifning forsiy tilni yaxshi bilganligi va tariqatga mansub ekanligi uning yuqorida tilga olganimiz mulla Fanoyi bilan ayni bir shaxs bo'lishi mumkin degan farazga olib keladi.

Shu davrda yashab, Fanoyi taxallusi bilan ijod qilgan shoirlardan yana biri – turk olimi A. Yildizning "Divan Edebiyatında Fenâyî Mahlaslı Şairler" (Devon adabiyotida Fanoyi taxallusini olgan shoirlar") tadqiqotida keltirilgan. Aniqrog'i, ushbu tadqiqotda Fanoyi taxallusli sakkiz nafar shaxs haqida ma'lumot beriladi. Ammo ulardan faqat bittasi bevosita "Tarixi muluki Ajam" tarjima qilingan davrda yashab, faoliyat yuritgan. Fanoyi Dede (vaf. 1519) taxallusli bu ijodkor Lazkiya shahri shayxi Foni Dedening (vaf. 1504) o'g'li bo'lib, mavlaviya tariqatiga mansub edi. Esrar Dedening *Tezkire-i Şu'arâ-yı Mevleviyye* asarida keltirilishicha, Fanoyi Dede "Şiir ve inşâda oldukça maharetli olup vaktinde şâir-i zor-âverdir" (she'r

va insho ilmida yetarlicha mahoratli bo'lib, o'z davrida fasohatli shoir – D.Y.) bo'lgan [Dede 2000, 421 – 424]. Tazkirada uning bitta forscha va bitta turkcha g'azalidan namuna keltirilgan. Ushbu ijodkorning “Tarixi muluki Ajam” asarini ko'chirgan Fanoyi bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, bu davrda yashagan yana bir Fanoyi taxallusli ijodkor Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlardan biridir. U “Xamsa”ning to'rtinchi dostoni “Sab'ai sayyor”ni 1529 – 30-yillari kitobat qilgan. Qo'lyozma hozirgi kunda Boku shahridagi OzFA qo'lyozmalar institutida, B 5078-raqami ostida saqlanadi. Hajmi 146 varaqdan iborat [Hakimov 1991, 18]. Agar bu xattotning Navoiy asarlaridan xabardorligi hamda ozar turklariga aloqadorligini hisobga olsak, Navoiy asarini tarjima qilgan shaxs u bo'lishi mumkin, degan taxmin yuzaga keladi.

Demak, ko'rinadiki, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarini XVI asrda usmonli turk tiliga tarjima qilgan Fanoyi taxallusli shaxs yuqorida tilga olganimiz uch Fanoyidan biri bo'lishi mumkin.

Asarning nusxalari haqida

“Tarjumayi tavorixi muluk” asari bizgacha sakkiz nusxada yetib kelgan. ularning yettitasi qo'lyozma, bittasi matbaa nashr, ya'ni toshbosma [Altun 2020, 59]. Qo'lyozma nusxalar: Qohira, Madrid, Bolonya, Gaziantep, Vena, Fotih, Chanqiri nusxalaridir. Toshbosma usulidagi nusxa 1785-yili Vena shahrida nashr etilgan va uning bir donasi hozirgi kunda Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining nodir kitoblar bo'limida saqlanmoqda.

Qo'lyozma nusxalardan faqat ikkitasi, ya'ni Bolonya va Gaziantep nusxalarida ko'chirilish sanasi qayd etilgan. Asarning ko'chirilish davriga ko'ra eng qadimiysi Bolonya nusxasi bo'lib, mazkur nusxada matnning ko'chirilish sanasi 989/1581-yildir¹. Gaziantep nusxasida esa 1008/1599-yil deb ko'rsatiladi. Madrid nusxasida qo'lyozmaning ko'chirilish yili qayd etilmagan, ammo matnning oxirgi sahifasi 24b tomonining pastki o'ng burchagidagi muhr ostida g'ira-shira 1055/1645 sanasini o'qish mumkin. Hilal Altunga ko'ra, Fanoyi tarjimasining asl matni, ya'ni birinchi tarjima bizgacha yetib kelmagan. Yuqoridagi nusxalar muallif tarjimasi asosida ko'chirilgan noma'lum nusxa asosida amalga oshirilgan.

¹ Asarning ushbu nusxasi haqida ma'lumot bergan D.Salohiy bu sanani milodiy 1640/41-yil deb ko'rsatgan [Salohiy, 2006].

Oohira va Madrid nusxalari nasxda; Fotih, Vena, Chanqiri nusxalari ta'liq; Gaziantep nusxasi arab nasx yozuvida, Bolonya nusxasi nasx yozuvida ko'chirilgan. Barcha nusxalarda har bir sahifaga o'n to'qqiz satr matn joylashtirilgani holda Bolonya nusxasi o'n besh qatordan iborat matnni o'z ichiga oladi.

Nusxalar o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra, kamida ikkita nusxa bizgacha yetib kelmagan yoki hanuz topilmagan. Ulardan biri tarjimon nusxasidir. Tarjimon nusxasidan ko'chirilgan nusxalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh Qohira va Madrid nusxalari bo'lib, ular Chag'atoy tilidagi asl matnga til va imlo nuqtayi nazaridan yaqinroqdir. Ikkinchi guruh esa noma'lum nusxadan ko'chirilgan Bolonya guruhi bo'lib, qolgan nusxalar shu nusxa asosida kitobat qilingan va ulardagi matnda Onado'li turkchasining yetakchilik qilishi kuzatiladi [Altun 2020, 62]. Demak, yo'qolgan nusxaning ikkinchisi Bolonya guruhiga asos bo'lgan noma'lum nusxadir.

Tarjumayi tavorixi muluk" asarining muqaddima qismida muallif mazkur asarni tarjima qilish sababini bir majlisda yig'ilgan taniqli kishilarning iltimosi bilan izohlaydi:

"...bu faqr ehlinuñ hāk-i pāyī ve fenā deştinüñ bâdiye-peymāyī, yanī fakīr ü haķīr Fenāyī, bir gün Hazret-i Mir Ali Şir Nevāyī'nüñ Tevārīh-i Mülük adlu risālesini bir şāhib-devletüñ meclis-i şerīfine tuhfē ve maħfil-i münīfine hediyye arz eylemişdi. Çün ol ālī-şānuñ iltifāt nazarlariyla müşerref olup birkaç varaķ mütālaa olundukda tab-ı şerīflerine gāyetde maṭbūve dil-pezīr ve nihāyetde mergūb ve bī-nazīr gelüp fevķa'l-hadd istihsān ve taħsīn buyurdılar. Ve ol meclisde hāzır olan aşhābdan bazı istimāından zevķ-nāk olup, ol şāhib-devletden iltimās eylediler ki bunı bir kişi Türkī üslūbı üzre imlā édüp Türkī tabīr eyleye; tā her kişi fehvāsını fehm édüp mütālaa asından mahzūz ve behre-mend ola" ("...bu faqirlar ahlining oyog'i ostidagi tuproq va fanolik sahrosining kezib yuruvchisi, ya'ni faqir va haqir Fenoyi bir kuni Hazrati Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub "Tavorixi Muluk" nomli risolani bir davlat egasining sharafli majlisiga tuhfa va ulug' majlisiga hadya sifatida taqdim etgan edi. Ushbu oliy martabali zotning iltifotli nigohlari bilan musharraf bo'lib, risolaning bir necha varag'i mutolaa qilingach, u zotning tab'iga nihoyatda ma'qul, ko'ngilga yoqarli, nihoyatda manzur va tengsiz bo'lib tuyuldi hamda haddan ziyod maqtov va tahsinga sazovor bo'ldi. Shuningdek, o'sha majlisda hozir bo'lgan ayrim kishilar uni tinglashdan zavqlanib, davlat egasidan iltimos qildilarki, bu asarni bir kishi turkiy uslubda imlo qilib, turkiy iboralar bilan bayon etsin;

toki har bir kishi uning mazmunini anglab, mutolaasidan bahramand bo'lsin").

Afsuski, bunda muallif shaxslar nomi, majlis bo'lib o'tgan hudud va voqea sanasini keltirib o'tmagani uchun majlisdagi taniqli kishilar, tarjimonning aniq shaxsi va tarjima amalga oshirilgan yil noma'lum bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda yana bir jihatni ta'kidlash lozim. Asarning Qohira va Madrid nusxalarida Fanoyi turk tilini (Onado'li turkchasini) yaxshi bilmasligi, lekin ulug'larning iltimosini yerda qoldirmaslik uchun asar tarjimasiga kirishganini g'oyat kamtarlik bilan bayon etadi:

"Ol ħazret daĥi bunlaruñ iltimāsını ħabūl ve maħşūdını ħuşūle mevşūl ħilup, ol ħizmeti yine bu bendeye ħavāle eylediler. Faħir daĥi bināen alā işāretihī'l-ālīye, bā-vücūd-ı bizāat-i ħalīl ve nüşa-yı alīl, henüz Türkce bilmez-iken kendüyi Türkçe bilür zum édüp... bu küstāĥlıġa ikdām ve bu bī-edebāne vaza iltizām eyledi. Fużalānuñ fazla-i iĥsānından mercū ve mütevaħġı dur ki, bu ħaħirūñ edebsizligini mazūr ve oranī bir aybını dāmen-i ātīfetleriyle mestūr buyurup galaĥ vāġıolan yerleri işlāĥ eyleyeler" ("O'sha hazrat ham ularning iltimosini qabul qilib, maqsadlarining ro'yobga chiqishini ta'minlab, mazkur xizmatni yana shu bandaga topshirdilar. Bu faqir ham oliy ishoratlariga binoan, ozgina salohiyat va zaif bir nusxa mavjud bo'lishiga qaramay, hali turk tilini bilmas ekan, o'zini go'yo turk tilini biladigandek tutib... bu jasoratga qo'l urdi va bu adabsizona vazifani zimmasiga oldi. Fazilat egalari o'z fazl-u ehsonlaridan marhamat ko'rsatib, bu haqirning adabsizligini uzrli deb bilib, undagi ayrim kamchiliklarni o'z muruvvat etaklari bilan yopib, xato bo'lgan joylarni isloh qilsalar, degan umid va intizorda turur").

Qizig'i shundaki, Fanoyining Anadolu turkchasini bilmasligi faqat Qohira guruhiga mansub nusxalarga kiritilgan, ikkinchi guruh qo'lyozmalarda bu ma'lumot uchramaydi. Hilal Altunga ko'ra, Fanoyi asarni ikki bosqichda tarjima qilgan. Birinchi bosqich tarjimaning Qohira va Madrid nusxalari matnini o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich esa Bolonya guruhidagi nusxalar bilan bog'liq. Ehtimol sifatida shuni aytish mumkinki, Fanoyi tarjimaning ilk variantini shaxsan o'zi qayta ko'rib chiqib, keyingi variantda Onado'li turkchasini yaxshi bilmasligi bilan bog'liq qismni olib tashlagan, matndagi chig'atoycha imlo va til unsurlarini kamaytirishga harakat qilgan.

Hilal Altun asl matnni tarjima bilan solishtirar ekan, shunday yozadi: Madrid va Qohira nusxalarida mavjud bo'lgan va

boshqa nusxalarga kiritilmagan "Turk tilini bilmasa ham bu ishni o'z zimmasiga oldi" iborasidan tarjimonning Onado'li turkchasini keyinroq o'rgangani tushuniladi. Tarjima qilgan kitobining manba tilini qanchalik bilishi borasida hech qanday muammoning yo'qligi Fanoyining ona tili chig'atoy tili bo'lganligi va muallifning o'zi sharqiy turklardan ekanligiga kuchli dalildir" [Altun 2020, 51]. Madrid va Kohira nusxalarida boshqa nusxalarga qaraganda sharqiy turkchadan kengroq foydalanilgan. Hilal Altun tanqidiy matn uchun Qohira guruhidagi tahrir qilinmagan matnni asos qilib oladi. Chig'atoycha manba sifatida "Tavorih-i Muluk-i Acem"ning "Fotih" nusxasidan, tarjimalar uchun esa Qohira nusxasidan foydalanadi.

Asar nomi turli nusxalarda turli nomlar bilan keltirilgan: "Tevarih-i Muluk-i Acem", *Târîh-i Fenâyi* (Vena nusxasi). "Risalat at-tavorix" (Bolonya nusxasi), "Târîh-i Mülük-i Nevâyî Tercüme-i Faḵîr Fenâyî" (Fotih va Chankiri nusxalari).

"Tarixi muluki Ajam" va "Tarjumayi tavorixi muluk" bilan bog'liq ayrim muqoyasalar¹

Qachonki, sho'rolar tuzumi mustahkam oyoqqa turib, o'zbek adabiyoti va adabiy tilini, milliy madaniyatini proletarlashtirish, sovetcha "baynalminallashtirish" jarayoni boshlangach, jadid ziyolilariga "burjua millatchilari" tamg'asi bosildi. Ayniqsa, katta avlod ziyolilarining sho'ro tuzumi, xalq uchun ziyonli ekanini fosh etishda Ziyoz Said (Qosim Solihov)ning xizmatlari ajralib turadi. Jadidlar keskin tanqid qilingan turkum maqolalari va matbuotga oid "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1917)" kitobini e'lon qiladi. Kitobida "Sadoyi Farg'ona" haqida shunday ma'lumot berilgan: "Farg'onada birinchi marta o'zbek tilida chiqarilgan gazeta. Muharrir va noshiri Obidjon Mahmudov (Obid chatoq) edi. Musahhah bo'lib Ashurali Zohiriy ishladi. Usmon Nuriy (qrimlik tatar) tarjimon edi. Muxbir va yozishuvchilari yo'q bo'lmasa ham - kam, shuning uchun bu gazeta ko'p vaqt e'lonlar bilan to'lib chiqqan. Tili o'zbekcha deyilgan bo'lsa ham, arabcha, forsiycha ko'p bo'lishi ustiga o'sha usulda jumlar tuzilar edi.

Tiraji 500 - 600 bo'lib, haftada uch marta chiqar va mushtariysi juda oz bo'lganlikdan ko'pincha qo'lda sotilar edi. 1914-yil 13-aprelda chiqqan bu gazeta, shu yilning noyabr oyida yotib qoldi. Hammasi bo'lib yuz songa yetar-yetmas chiqdi" [Ziyoz Said 1974].

Gazetaning jami nashr sonlari hisobida, faoliyati to'xtagan yili bo'yicha bu joyda yanglishlikka yo'l qo'yilgan, mazmunida anchayin sho'rocha sinfiylik sezilib turgan bo'lsa-da, bu tarixiy jihatdan e'tiborga loyiq. Ayrim manbalarda gazeta 123ta son chiqqan deyilsa, Cho'lpon buni 126 ta deb ko'rsatgan.

Gazeta sahifalarida Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Abdullabek Musobek hoji o'g'li, Shokir Muxtorov, Hamza, Vasliy, Muhammad Odil, Cho'lpon, Ibrohim Davron va boshqa mualliflarning jamiyat hayotining turli va muhim mavzularida publitsistik maqolalari e'lon qilib borilgan. So'fizoda, Tavallo va yosh Cho'lponning she'rlari bosilgan.

"Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 1-sonida (3-aprel) yozilgan "So'z boshi" Ashurali Zohiriy qalamiga mansub. Ma'rifatparvar unda milliy turmush, millat taraqqiyotida milliy matbuot va adabiyotning o'rni to'g'risida qizg'in fikr yuritadi.

Insonlarda milliy ong va hisni uygʻotishda, ma'naviy-ruhiy tarbiya sohasida yangi adabiyot va matbuotning qudratli vosita ekanini koʻrsatib oʻtadi: “Gazeta har bir millatning tarjimonidirki, bilmagan narsalarini bildirar va ham millatning muddaosini boshqalarga bildirar < ... > Yana boshqa bir soʻz bilan aytilsa, gazeta har bir millatning tilidir. Gazetasiz millat tilsizdir. Zero, tili va adabiyoti yoʻq millat millat emasdir. Har kimning dunyoda tirik turmogʻi uchun havo bilan suv qanday lozim boʻlsa, har qavmning hayoti saodati uchun ul millatning adabiyoti va matbuoti boʻlmogʻi lozim” [Zohiriy 1914, 3-aprel].

Til – millatning ruhi, uning dunyoda borligining asosiy omili ekanini jadidlar ham teran anglaganlar. Shu sababli barcha zamonlarda xalqning asl farzandlari, maʼrifatparvar siymolar ona tilini millatga oʻzligini anglatishda, uning qudratini, shon-shuhratini koʻtarishda, tushkun va tutqun zamonlarda esa ruhiyatini omon saqlash, unga qaytadan kuch bagʻishlashda zoʻr qurol deb bilganlar. Xususan, milliy uygʻonish davri boʻlib tarixga kirgan XX asrning birinchi choragida maʼrifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruhni uygʻotishda, milliy ongni oʻstirishda tilga gʻoyat katta ahamiyat berdilar. Negaki, ular millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho javohir ona tili ekanligini komil darajada tushunganlar. Shu bois oʻz tillarini rivoji uchun barcha choralarni ishga solib, bu yoʻlda xizmat qildilar.

“Sadoyi Fargʻona” yoʻlga qoʻyilgach, Zohiriyning koʻp oʻtmay eʼlon qilgan “Ona tili” maqolasi “Bir millatning oʻz tilidagi kitob, risola, gazeta, jurnol va boshqalarigʻa bir soʻz bilan, adabiyot (literatur) deyilur” jummalari bilan boshlanadi [Zohiriy 1914, 13-aprel]. Fikrini davom ettirib u shunday yozadi: “Dunyoda yashab turgʻuchi har bir millatning ilmda, hunarda va boshqa toʻgʻrilarida qaysi darajada ekanligi adabiyoti bilan oʻlchonilini, adabiyoti boy boʻlgʻon millatni har vajhdan oldinda va yuqorida eʼtibor qilinur. Bilaks, adabiyoti boʻlmagʻon, boʻlsa ham borlik, yoʻqlik (oʻrtasida – *T.T.*) boʻlsa, ul qavmning boshqalar oldida hurmat va eʼtibori boʻlmas. Va ham har nav hayot ijtimoiya va madaniyatdan bahra ololmas”. “Bas, endi bizda ham ul “adabiyot” degan narsa bormu? Yo yoʻq?” – deya savol qoʻyadi va bunga oʻzi: “Yoʻq desa xato boʻlmaydurgʻon darajada bordur...” deya javob beradi. Millatning ulamo va mudarrislari va xoh yosh oʻsmirlar boʻlsun, bu muqaddas ona tilini tiriltirmoq u yoqda tursin, balki yoʻqotmoqlikka sabab boʻlayotganliklaridan qaygʻuradi. Ulamolar oʻz xat yoki yozishmalarini ona tillari qolib, forsiy tilda bitishlarini, hammasidan zararlisi – shogirdlarga arabcha sarf,

nahv darslarini o'z tillari qolib, forsiy til vositasida o'rgatishlarini tanqid qiladi. "Ona tilig'a muhabbat va islohi" umid qilingan yosh o'smirlar esa o'zaro xat-yozuvlarida usmonlicha yoki tatarcha yozishlaridan ranjiydi. Muallifga ko'ra, bularning birinchilari eron adabiyoti, ikkinchilari tatar va usmonli adabiyoti vositasi bilan fikrlarini ochganliklari bois "o'z ona tillarig'a haqorat nazari bilan boqub, kundan kun esdan chiqormoqg'a boshlaydurlar". Behbudiy hazratlari fikrlariga hamohang "porsiycha, arabcha, uruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikgina emas, juda yaxshi bilaylik. Lekin o'z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyodroq bilaylik, sarf va nahvlari bilan bilaylik... Qachonki, o'z ona tilimizni yaxshilab bilmadikmu, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz", - deb yozadi.

Tarixda mavlono Lutfiy, Alisher Navoiydek zotlar ona tilining boshqa tillarga nisbatan boyligini, she'riyatdagi yuksakligini, musiqada bo'lgan latofatini o'z asarlari bilan ko'rsatib berganliklarini namuna qilib keltiradi. "Ona tiliga muhabbati bor kishi ham Amir Navoiy asarlarini o'qub ko'rganda, tilimiz avvalda shuncha boy va mukammal ekan, nima qildikki ul latofat, ul nafosatlarini yo'qotib, kishi tonimoydurg'on bir holga kelturub qo'yduk, deb ohlar tortur" .

Mana bu fikrlar esa maqolaning mohiyatini ifodalaydi: "Nechukki, har bir insonning jonidan aziz narsasi din va millatidir. Ul din va millatni muhofazati ham har afrodi insonga vojibdur. Oni muhofazati ona tili muhofazati bilan bo'lur. Qachonki bir millat tilini yo'qotsa, ul vaqt dinini va millatini ham yo'qotur".

Tatar qardoshlarning bu paytdagi til va adabiyotlarining taraqqiysi ularning milliy va ona tilidagi gazetalari bilan bo'lganini ko'rsatadi. Gazeta va jurnallar dunyo ahvolidan va boshqalar borasida xalqqa xabar berib, fikrini o'stirish bilan birga, "ona tilining kengg'oymog'i va mukammallashmog'i"ga katta foydasi bo'lishini uqtiradi. Milliy tilning taraqqiysi uchun qayg'urmay turgan Turkiston gazeta va jurnallarini ona tiliga xizmat etishga chaqiradi: "Takror aytaman, gazeta ona tilig'a xizmat etsun! Vaqti kelganda millatini tili yo'qlar qatorida qoldirmasun!".

Faoliyatining ilk pallalaridan ona tili uchun qayg'urgan Ashurali Zohiriy ham umrining oxirigacha milliy til uchun kurash maydonida turdi. Sho'rolar davlati sharoitida ham bu tuzim bergan imkoniyatlardan foydalanib, o'zbek xalqining milliy manfaatlarini himoya qildi. U ona tilini davlat tili bo'lishi uchun kurashdi. Davlat muassasalarida ish yuritishni o'zbek tilida olib borish masalasini doim ilgari surdi [Zohiriy 1923, 13-may; 1924, 199-son].

"Sadoyi Farg'ona" sahifalarida Zohiriyning turli mavzularda

yurt va jamiyat hayotining qizg'in masalalari aks etgan o'nlab maqolalari e'lon qilindi. Keyinchalik zamon o'zgarib, dunyo yuzini ko'rgan Farg'ona matbuot nashrlarida ham jo'shqin faoliyat yuritdi.

Taniqli jurnalist, olim Halim Saidov Farg'onada chiqqan "El bayrog'i", "Yangi Sharq", "Mehnat bayrog'i", "Farg'ona", "Yangi Farg'ona" kabi gazetalar asli "Sadoyi Farg'ona"dan boshlanganini asoslab beradi. Ashurali Zohiriyga haqqoniy baho berib, uning bu silsilalar shodasini asosiy bog'lovchi xalqa rolini ado etganini to'g'ri ta'kidlaydi. Muallif "...gazetaning muassisu muharrirlari, nomi o'zgaradi, lekin jamoalarda har doim bog'lovchi mehvar vazifasini millat fidoyisi Ashurali Zohiriy bajarib turadi" [Saidov 2014] deganda, butkul haq edi.

Darhaqiqat, Ashurali Zohiriy hayoti, faoliyati, boringki, taqdiri Farg'onada chiqqan mana shu asosiy nashrlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, u Turkiston Muxtoriyati qadar qisqa umr ko'rgan, uning rasmiy organi bo'lgan "El bayrog'i" gazetasiga 1918-yildan Po'lat Soliyev bilan hammuharrirlik qildi. "Yashasin Turkiston Muxtoriyati" so'zlarini o'ziga shior qilib olgan bu gazeta muvaqqat milliy hukumat siyosatini yoritib boruvchi davriy nashr edi. Gazeta sonlarida e'lon qilingan maqolalar mazmunida muxtoriyatchilik, milliy davlat, uni boshqarish va mustahkamlash, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, milliy-ma'naviy sohalarini rivojlantirish masalalari aks etgan [Vohidova 2023, 12 – 16]. Ziyoy Said "El bayrog'i"ni bolsheviklarga, proletariat sinfiga qarshi kurashishda ayblaydi. Bu nashr aksilinqilobiy gazeta sifatida sho'ro davlati tomonidan tugatildi. Ashurali Zohiriyning bundagi faoliyati keyinchalik uning sovetlar tomonidan "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilinishida qo'l keldi.

Ashurali Zohiriyning Farg'ona gazetalar tarixi haqida ma'lumot bergan ikkita maqolasi mavjud. Birinchisi – "Farg'ona" gazetasining 1924-yil 181-sonida "Olti yillik o'zbek adabiyoti (bosma so'zi)ga bir qarash" nomli maqolasi bo'lsa, ikkinchisi – "Farg'ona" gazetasining 1926-yil 27-maydagi 402-sonida bosilgan "Farg'ona" gazetasining tarixi va muvaffaqiyatlari (besh yoshga to'lishi munosabati bilan)" nomli maqolasidir. Turgan gapki, bu maqolalarda inqilobdan oldingi "Sadoyi Farg'ona" yoki boshqa nashrlar to'g'risida so'z yuritilmagan. Ikki yil farqi bilan chiqqan bu maqolalardagi "Farg'ona" gazetasi tarixiga oid ma'lumotlar asosan mos keladi va bir-birini to'ldiradi. Gazeta mas'ul muharrirlarining ko'rsatilishi, ular ism-familiyalarining qisqa yoki to'liq shaklda yozilishi jihatidan biroz farqli o'rinlar ham mavjud. Masalan, 1924-yilgi maqolada "Bu

muddat ichida "Farg'ona" gazetasi: Fotih Sulaymon, Nabi Mansur, Ayn Karim, Abdulla Pahmat, Mirzohid Oqil, S. Saydali, Sulton Segiz yana A. Karim o'rtoqlarning mas'ul muharrirliklari ostida chiqib keldi" deb ko'rsatilgan. 1926-yilgi maqolada esa bu quyidagicha aks etgan: "5 yil ichida "Farg'ona" gazetasida mana bu o'rtoqlar muharrirlik etdilar: 1) Botu, 2) Fotih Sulaymon, 3) Nabi Mansurof, 4) Abdullajon Karim o'g'li, 5) Sulton Segizboy o'g'li, 6) Mirzohid Oqiliy, 7) Sayidsulton Sayidali o'g'li, 8) Mirza Hakimali o'g'li, 9) A. Rahmat, 10) Xolmuhammad Oxundiy".

Birinchi maqolada sho'rolar tuzumi o'rnatilgandan keyin Turkiston Muxtor Sho'rolar Jumhuriyati (TASSR) olti yillik davrida bu o'lkada, xususan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysida bosilgan o'zbekcha gazeta va jurnallar haqida, ayrim gazetalarning til va texnik jihatdan yutuq va kamchiliklari borasida ma'lumot berilgan, shuningdek, sahna va badiiy asarlar to'g'risida ham muxtasar fikrlar bildirilgan. "Olti yillik o'zbek qizil adabiyotining yetishtirgan qizil qalam imzolari"dan Usmonxon, Julqinboy, G'ozi Yunus, Botu, Elbek, A.Pahmat, Saydalixo'ja, O'ktam, Sanjar, Vadud Mahmud, Mannon Pamz, Abdulhay Toji, Abdulmo'min Sattoriy, A. Maqsudiy, Ziyu Said, Komiljon, Pafiq va G'ayratiy kabilarni ko'rsatsa, yangi shoir va yozuvchilar sifatida Said Ahmad, Zehniy, Bektosh, Muxtor, Mahmud, Ahmad Shukuriy, Anqaboy, Tillaxon qizi, Usmon Akromiy kabilarni tilga oladi.

Ashurali Zohiriyning "Olti yillik o'zbek adabiyoti (bosma so'zi)ga bir qarash" nomli maqolasi chop etilgan "Farg'ona" gazetasining 1924-yil 181-sonida "Qizil o'zbek matbuotimizning olti yilligi" nomli bosh maqola, shuningdek, Lutfulla Olimiyning "Qizil adabiyotimizning hozirgi holi" va Abdurahmon Sa'diyning "Olti yillik o'zbek qizil matbuoti davrida maktab adabiyoti" nomli maqolalari ham o'rin olgan. Gazetaning ushbu soni sakkiz sahifada chiqqan.

O'zbek qizil matbuotiga olti yil to'lishi munosabati bilan "Turkiston" gazetasi "Farg'ona" gazetasining boshqarmasiga tabrik yo'llagan.

Gazetaning birinchi sahifasida "Farg'ona" gazetasining butun "tahririya idora ishchilari": A. Rahmat, A. Zohiriy (hay'at tahririya), Nosirjon Ziyu o'g'li (idora mudiri), Yunusjon Og'aliq (muvazze' – ekspeditor) kabilarning birga tushgan surati bor. Keyingi sahifalarda Botuning surati (izohi bilan: 1921-yil 27-may "Farg'ona" gazetasi boshlab chiqq'ondag'i hay'at tahririya boshlig'i ham qadrli yosh shoirimiz o'rtoq Botu), Cho'lpon (yosh shoirimiz – Abdulhamid

Sulaymon), S. Segizboyev, A. Karim (bosh muharrir) va gazetaning boshqa texnik xodimlari surati bosilgan.

Ikkinchi maqola to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Farg‘ona” gazetasi tarixiga bag‘ishlangan. Unda dastlab gazeta 1919-yili 1-iyulda Farg‘ona shahrida Farg‘ona viloyati firqa qo‘mitasi va viloyat inqilobiy qo‘mitasi fikr tarqatuvchisi bo‘lib, “Yangi Sharq” nomi bilan chiqqani qayd etilgan.

Maqolani o‘qib, 1921-yil yanvar oyi o‘rtalarida Farg‘ona viloyati markazi Qo‘qonga ko‘chgach, u bilan birga “Yangi Sharq” gazetasi idorasi ham bu yerga ko‘chgani, gazetaning 4(96)-sonini chiqargani, uning avvalgi muharriri Qosim Sarokin bo‘lganidan xabar topamiz.

Ko‘p o‘tmay “Yangi Sharq” gazetasi Qo‘qonda chiqib turgan “Знамя труда” gazetasining nomini olib, ya‘ni uning “musulmonchasi bo‘lib” “Mehnat bayrog‘i” nomi bilan chiqa boshlaydi. Zohiriy yozishicha, “Mehnat bayrog‘i” “...avvalda Qosim Sorokin, keyin Rashid Ibrohim degan “shoir”ning mas‘ul muharririligi ostida 1921-yil 25-maygacha davom etib keldi”.

Zohiriy maqolasidan quyidagi parchani bu o‘rinda keltirishni lozim topdik. Zero, “Farg‘ona” gazetasining hayot yo‘li, shunday nomlanishi, tadrijiy takomili bilan aloqador bu jumlar qimmatli manba bo‘la oladi. Zohiriy shunday ma‘lumot beradi: “Farg‘onadagi bosmachilik bilan turli yo‘lda qattig‘ kurashmoq maqsadida, o‘rtoq To‘roqulov shu 21-yil 15-martdan e‘tiboran Turkistonning o‘rta va oliy maktablaridagi o‘qug‘uchilardan besh yuz nafarini Farg‘onaga safarbarlik bilan keltirdi (Davlat dorilfununi, ishchi fakulteti talabalari va boshqa ishchilar bilan).

Bu keltirganlarning ichida yosh shoirlarimizdan Botu, “Ishtirokiyun” gazetasida bir muncha vaqt muharrirlik qilg‘on Umar Alimuhammaduf, hozirgi “Ozod Buxoro” gazetasi muharriri Fotih Sulaymon, hozir Qozon dorilfununida o‘qiydigan Is‘hoq Hamzin va boshqalar bor edi. Shu uchun bunda chiqib turgan gazetani yosh kuchlar bilan yangi va yaxshi yo‘lg‘a qo‘ymoq uchun o‘sha yil 25-mayda yuqorida aytilgan kishilar ham Nazir To‘raqulov va mening ishtirokim bilan kengash majlisi bo‘ldi. Shunda <...> “Mehnat bayrog‘i” berkitilib, muharriri chiqarilib, yangi gazeta chiqariladurg‘on bo‘ldi. Menim taklifim bilan “Farg‘ona” ismi qo‘yilib, 27-mayda birinchi soni chiqdi. Muharriri tahrir hay‘ati edi. Hozirgi “Farg‘ona” o‘shaning davomi” [Zohiriy Ashurali 1926].

Ashurali Zohiriy buni *birinchi davr* deb belgilaydi.

Tahsillar boshlanib, Toshkentdan borgan talabalar ketgan-

laridan so'ng Fotih Sulaymon muharrirligida chiqa boshlagan "Farg'ona" gazetasi 1921-yilning oxirigacha 60ta son 700 nusxada nashr etilgan. 1922-yil boshidan 20-dekabrgacha gazetaning 58-soni chiqib, mablag' yo'qligi uchun to'xtab qoladi. 1923-yilda esa umuman bosilmaydi. Nabi Mansurov gazetaga muharrirlik qilgan bu vaqttni matbuot faoli *ikkinchi davr* deb ataydi.

1923-yil fevral oyida Abdulla Karimov Farg'ona viloyat qo'mitasiga mas'ul kotib bo'lgach, u "Farg'ona"ning davom etishini moddiy tomondan qo'llab-quvvatlaydi. Gazetaning 59-soni 19-fevraldan Abdulla Karimov muharrirligi ostida chiqa boshlaydi va to'xtamay davom etadi. Zohiriy maqolasida bu vaqttni *uchunchi davr* sifatida ko'rsatadi.

Gazetaning shu sonida, tahririyatniki bo'lsa kerak, "Farg'ona" gazetasining tilimizga qilg'on xizmati" unvoni bilan kichikroq maqola berilgan. Undagi ba'zi ma'lumotlar "Farg'ona" gazetasi haqidagi tarixiy sahifalarni tiklashda asqotadi. Chunonchi: "1921-yilda yosh shoirimiz Botu va til bilgichlarimizdan Ashurali domla va bir necha yosh kuchlarning urinishi orqasida ta'sis etilgan "Farg'ona" gazetasini hech ikkilanmay chinakam o'zbek tilida chiqqan, chiqib turgan birdan bir gazeta deb da'vo qilsak, hech kim bunga bir nima deb aytmas, deb o'ylaymiz". Bu maqola o'sha chog'da chiqib turgan gazetalarning til xususiyatlarini tekshirgan va fikr bildirgan.

1926-yilda Ashurali Zohiriy "Farg'ona" gazetasida texnik muharrir bo'lib xizmat qilgan. Gazeta nomi "Yangi Farg'ona"ga o'zgartirildan keyin ham 1930-yil oxirigacha shu joyda ishladi.

1992-yili Ashurali Zohiriyning Qo'qon shahridagi uyiga borib, qizlari Mohira xola bilan suhbatlashganimizda, ularning aytishlariga ko'ra, otalarini NKVD xodimlari birinchi marta 1930-yili 31-dekabrda olib ketishgan. Yangi yil kiradigan kun uyda mehmonlar bo'lgan. O'sha kun gazeta chiqadigan kun bo'lgani uchun Zohiriy hali tahririyatdan uyga qaytmagan. Uni izlab kelganlar ishdan qaytayotgan Zohiriyini yo'lda tutib ketishgan ekan.

Shundan boshlab u rasmiy matbuotda butunlay ko'rinmaydi. 10 yilga hukm qilingan Zohiriyning Moskva-Volga kanali qurilishida ishlab yurgan kezlari o'zi tashkil etgan qamoqxona gazetasidagi chiqishlari bundan mustasno, albatta. Hatto 1934-yil noyabr oyida qaytib kelib, 1937-yilda takror hibsga olingunga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida ham bunga ruxsat berilmagan.

Umuman, 1910-yillardan Turkiston vaqtli matbuotida faol qatnasha boshlagan Ashurali Zohiriy Farg'onada chiqqan gazeta-jurnallar tashkilotchisi, muharriri, xodimi bo'lgani holda matbuotda

ko'plab dolzarb maqolalar e'lon qildi. Xususan, "So'z boshi" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y., 3-aprel), "Ona tili" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y., 13-aprel), "Davlat dumasi" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y., 16-aprel), "Pilla kam tutilmog'ining sabablari" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y., №15, 16, 17), "Yordam o'rnig'a bizlar bir-birimizni ezishamiz" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y., 8-iyun), "Marhum Ismoilbek qanday ishlar qilgon?" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y., 60-son), "Turkistondan birinchi yurist" ("Sadoyi Farg'ona", 1915-y., 15-may), "Hukumat o'zgarishi" ("Yurt", 1917-y., 1-son), "Yangi imlo atrofida" ("Mehnat bayrog'i", 1921-y., 10-mart), "12-firqa qurultoyida millatlar masalasi" ("Farg'ona" 1923-y., 13-may), "O'tkanlarga bir qarash" ("Farg'ona", 1923-y., 100-son), "Bir yil to'ldi" ("Farg'ona", 1924-y., 199-son), "Olti oylik o'zbek adabiyoti (bosma so'zi)ga bir qarash" ("Farg'ona", 1924-y., 21-iyun), "O'zbeklar" ("Farg'ona", 1926-y., 346-son), "Turkiyot qurultoyi to'g'risida" ("Farg'ona", 1926-y., 384-son) kabilar shular jumlasidandir. Ularda zamonning eng dolzarb masalalari: ona tili muhofazasi, islomiy axloq, madaniy-dunyoviy ma'rifat, yangicha ta'lim-tarbiya, milliy uyg'onish, hurriyat, taraqqiyot, milliy davlatchilik g'oyalari, iqtisodiyot va maishiy turmush masalalari, shuningdek, olimning tilshunoslik, adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan.

Xulosa

Xullas, Ashurali Zohiriy zamonning atoqli ma'rifatparvarlari qatorida mustamlaka tuzumining tazyiqlariga qaramasdan, o'z hayotini o'zbek xalqining milliy istiqboliga, har jihatdan taraqqiy etishiga, ma'naviy kamolotiga, ona tilimizning ravnaq topishiga bag'ishladilar. Muvaffaqiyatga erishishda matbuot kuchiga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, zamon o'zgarishlariga qaramay, vorisiylik bilan davom etgan Farg'ona matbuotining asosiy nashrlari rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Haqiqiy vatanparvar va millatparvar sifatida yorqin iz qoldirgan bu zotning faoliyati bo'yicha yangi va yaxshi tadqiqotlar amalga oshirishi zarur.

Adabiyotlar

- Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. 1997. Bo'linganni bo'ri yer. Toshkent: Adolat. 179. *Farg'ona*, 1923. №100.
- Saidov, H. 2024. "Farg'ona haqiqati"ning asoschilari bolsheviklarmi? yoxud "Sadoyi Farg'ona"dan "Farg'ona haqiqati" gacha". *Farg'ona haqiqati*, 5-yanvar.
- Vohidova, K. 2023. "El bayrog'i" gazetasi haqida". *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*. №8 (3).

- Cho'lpon. *Turkistonda matbuot*. 1998. Nashrga tayyorlovchi: T.Tog'ayev. "Jamiyat va boshqaruv". 2-son.
- Qodirova, G. 2019. "Sadoyi Farg'ona" gazetasi – o'lka hayotidagi muhim hodisa sifatida. *INFOLIB*, 3-son.
- Ziyo Said. 1974. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Zohiriy Ashurali. 1914. *So'z boshi*. *Sadoyi Farg'ona*. 3-aprel. №1.
- Zohiriy Ashurali. 1914. Ona tili. *Sadoyi Farg'ona*. 13-aprel.
- Zohiriy Ashurali. 1923. "12-firqa qurultoyida millatlar masalasi". *Farg'ona*, 13-may.
- Zohiriy Ashurali. 1924. Bir yil to'ldi. *Farg'ona*, 199-son.

Ashuralli Zohiri is a prominent representative of the Jadid press

Tulkin Togaev¹

Abstract

This article is devoted to the study of the publishing and journalistic activities of Ashurali Zohiriy, a prominent representative of the Uzbek Jadid movement, as well as his socio-political engagement. Particular attention is paid to the enlightener's contributions during the 1910s–1920s to the development of the national press, printing, and other cultural and educational spheres. The study also highlights the scholar's efforts to awaken the nation through the press, to cultivate national consciousness and spirit among the people, and to promote awareness of civil rights and freedoms. The process of formation and development of the Fergana press and the history of newspapers are examined through the figure of Ashurali Zohiriy, with an emphasis on his activities and legacy.

Key words: *Jadidism, autonomy, independence, Fergana press, native language, national consciousness, culture.*

References

- Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. 1997. Bo'linganni bo'ri yer. Toshkent: Adolat. 179. *Farg'ona*, 1923. №100.
- Saidov, H. 2024. "Farg'ona haqiqati"ning asoschilari bolsheviklarmi? Yoxud "Sadoyi Farg'ona"dan "Farg'ona haqiqati" gacha". *Farg'ona haqiqati*, 5-yanvar.
- Vohidova, K. 2023. "El bayrog'i" gazetasi haqida". *Ijtimoiy-gumanitar*

¹ *Tulkin Togaev* – Candidate of Philological Sciences, Docent, Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: tm-togay@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-0809-3198

For citation: Togayev, T. 2025. "Ashuralli Zohiri is a prominent representative of the Jadid press". *Golden Scripts* 4: 63 – 75.

fanlarning dolzarb muammolari. №8 (3).

Cho'lpon. *Turkistonda matbuot*. 1998. Nashrga tayyorlovchi: T.Tog'ayev. "Jamiyat va boshqaruv". 2-son.

Qodirova, G. 2019. "Sadoyi Farg'ona" gazetasi – o'lka hayotidagi muhim hodisa sifatida. *INFOLIB*, 3-son.

Ziyo Said. 1974. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

Zohiriy Ashurali. 1914. *So'z boshi. Sadoyi Farg'ona*. 3-aprel. №1.

Zohiriy Ashurali. 1914. Ona tili. *Sadoyi Farg'ona*. 13-aprel.

Zohiriy Ashurali. 1923. "12-firqa qurultoyida millatlar masalasi". *Farg'ona*, 13-may;

Zohiriy Ashurali. 1924. Bir yil to'ldi. *Farg'ona*, 199-son.

Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun II bitigi: leksik birliklarning badiiy funksiyasi

Ma'rufjon Dustmurodov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Uyg'ur xoqonligi davrida yaratilgan Ikkinchi Qarabalg'asun bitigining tarixiy, lingvistik va adabiy qimmatini tahlil qilinadi. Yodgorlikning topilgan joyi, yozuv tizimi, tili va janriy xususiyatlari bilan bir qatorda, asosiy e'tibor matnda voqeliklarni o'zaro zidlantirish – antiteza usuli orqali ifoda etilgan, mohiyatan she'riy shaklga yaqin jumlagi qaratiladi. Maqolada bitigda aks etgan davlatchilik, xalqni himoya qilish va axloqiy g'oyalar, shuningdek, Insonning tug'ilish – umr – o'limga bo'lgan munosabatining badiiy vositalar yordamida ta'sirchan tarzda ifodalanishi ilmiy jihatdan talqin etiladi. Bundan tashqari, yodgorlikning qadimgi uyg'ur-turk tili leksikasi hamda gap tarkibini o'rganishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: *turk-runik yozuvi, Uyg'ur xoqonligi, Qarabalg'asun II bitigi, epitafiya, saj' (nasrdagi qofiya), antiteza, qadimgi turkiy til.*

Kirish

Hozirgacha turkiylarning ilk o'rta asrlar tarixiga tegishli bir necha yuzlab bitigtoshlari aniqlangan. Ulardan Turk (552 – 744) va Uyg'ur (744 – 840) xoqonliklariga tegishli matnlarda odatda nazmiy parchalar ko'zga tashlanmaydi. Lekin bulardan Qarabalg'asun II bitigi matnida qadimgi turkiy adabiyotga tegishli lirik parchalar izlanadi. Darhaqiqat, mazkur davr yodnomalari faqat nasriy shaklda bitilganda ham, ular adabiy qimmatini yo'qotmagan bo'lar edi, lekin ushbu adabiy yodgorliklar matnida nazmiy parchalarning uchrashi ularning qimmatini yanada oshiradi, albatta. Aytish kerakki, O'tukan Uyg'ur xoqonligi bitiglarining shakl va uslubi U. Sertkaya [Sertkaya 1999, 233–240], A.Gaben [Gabain 1956, 537–556] va boshqa turkologlar tomonidan bilvosita o'rganilgan. O'tukan Uyg'ur xoqonligi bitiglari she'riy shaklning spetsifik xususiyatlari nuqtayi

¹ *Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

E-mail: maruf_dust@mail.ru

ORCID: 0009-0003-4954-9504

Iqtibos uchun: Dustmurodov, M. M. 2025. "Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun II bitigi: leksik birliklarning badiiy funksiyasi". *Oltin bitiglar* 4: 76 – 98.

nazaridan o'rganilganda, Tesiyn, Tariat, Qari Chor Tigin, Shine Usu, Suujiyn, Arxanan, Xoyt Tamir (Tayhar Chuluu) va Gurvaljin Uul bitiglarida she'riyatdan ko'ra nasrning qat'iyliigi ko'zga tashlanadi. "Biroq, Qarabalg'asun II bitigi tuzilishi jihatidan o'ziga xosdir, chunki ba'zi qatorlar boshqalariga qaraganda she'riy shaklga ancha yaqin. Qarabalg'asun I va Sevrey bitiglarining turkcha qismlarini to'la o'qib bo'lmagani uchun, bu bitiglar bo'yicha hech qanday baho berish mumkin emas" [Gürgün Hasan 2025, 257 – 283]. Aytish kerakki, biz e'tibor qaratmoqchi bo'lgan bitig o'sha davrdagi matnlardan "aralash – nasr-nazm" shaklida ekanligi, ya'ni nasriy matn ichida she'riy shaklga ega parcha mavjudligi bilan farqlanadi.

Yodgorlik Arxangay viloyatining O'rxun Xo'tont tomonidan g'arbda joylashgan O'rdubaliq shahridan 8 km shimolda, Jarantayn daryosi bo'yida topilgan. Bitigtosh rangli granitdan yasalgan bo'lib, 12 qatorli yozuvda 103ta belgi mavjud. Yodgorlikda ikkita tamg'a (belgi) o'yilgan. Bitigtoshni 1973-yili S. Myagmarjav kashf etgan va 1975-yili sovet-mo'g'ul ekspeditsiyasi tomonidan Mo'g'uliston Fanlar akademiyasi Tarix instituti laboratoriyasiga topshirilgan. Yodgorlik bo'yicha ilk tilshunoslik tadqiqotini mo'g'ul olimi M. Shinehuu olib borgan. Shuningdek, yodnoma bo'yicha asosiy tadqiqotlar R. Alimov, T. Osava, M. Shinehuu, B. O'zundar, O. Hansen, T. Moriyasu, T. Yoshida, A. Katayama, L. Bold va D. Tseveyendorj, L. Bold, U. Sertkaya, U. Mert, G. Shlegel, N. Bazilhan va M. O'lmaz tomonidan olib borilgan. Ulardan B. O'zundar va M. O'lmaz o'z tadqiqotlarida M. Shinehuu nusxasidan asos sifatida foydalanganlar, N. Bazilhan esa bitigni o'z nusxasi bo'yicha o'qigan. Ushbu tadqiqot 1996-yili avgust oyida T. Osava tomonidan tayyorlangan bitigning muhriga asoslangan. Qarabalg'asun II bitigidagi belgilarning O'tukan Uyg'ur matnlariga xosligi, xususan, uning 795-yili yaratilgan Qari Chor Tigin yodgorligidagi belgilar bilan stilistik yaqinligi hisobga olinsa [Alimov Rysbek 2015, 29], hech shubhasiz, bu bitigni VIII asrga oid deb hisoblash imkonini beradi.

Qarabalg'asun II bitigining adabiy va lingvistik xususiyatlari

Ushbu tadqiqot Qarabalg'asun II bitigining adabiy va lingvistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan va bir nechta ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Manbashunoslik (tekstologik) va lingvistik nuqtayi nazaridan tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Qarabalg'asun II bitigining nashr etilgan matnlari, faksimile nusxalari va ularga oid ilmiy izohlar qiyosiy o'rganiladi.

Leksik-semantik va morfologik tahlil orqali bitigtosh misolida uyg'ur-turk tilining leksik, morfologik xususiyatlari va uslubiy belgilarini aniqlanadi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali bitig matnidagi nazmiy parcha tahlil qilinib, anonim muallif tafakkuri misolida o'sha davr turkiy dunyo kishisining tug'ilish – umr – o'lim haqidagi falsafiy qarashlari o'rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks, interdissiplinar yondashuvga tayanadi va Qarabalg'asun II bitigini tarixiy, tilshunoslik, madaniy va mushohadaviy nuqtayi nazardan ko'p qirrali tadqiq etish imkonini beradi.

Bitigtosh matnidagi badiiy mazmuni vujudga keltirgan lingvistik vositalar tahliliga kirishishdan avval yodnomaning to'liq matni, tabdili va uning leksikasini o'rganish zarur.

Matn (transliteratsiya va tabdil):

- 1) *qunč[(u)y]*¹ – qunchuy (aqunchi?);
- 2) *buyuruqī : ärtim* – buyuruqi (vazir) edim;
- 3) *öñt(ä)n(i)g : tïd(a)r* – oldindan qo'riqlar;
- 4) *ärtim: käd(i)n(i)g* – edim ortni;
- 5) *it(i) (ä)rür: (ä)rt(i)m* – tartibga keltirar edim;
- 6) *kök: t(ä)ñiridä* – ko'k osmonda;
- 7) *qut(u)m: yuyqa* – qutum yuqa;
- 8) *boltī : ya(γ)iz* – bo'ldi yag'iz (qaro) ;
- 9) *y(ä)rdä: yolim* – yerda yo'lim (safarim) ;
- 10) *qışya : boltī* – qisqa bo'ldi;
- 11) *tägmišä : boltī* – (o'lim) tegadigan bo'ldi;
- 12) *buqa: oyul(i)m (a)tī* – buqa o'g'limning otidir.

Bitigtosh matnida ohang va fikr tugalligi chegaralarini oydinlashtirish uchun uni lingvistik va adabiy jihatdan (mavjud tadqiqotlardagi kabi) quyidagi holatda qayta transformatsiya qilish mumkin:

(1-2) *qunčuy buyuruqī : ärtim* – qunchuy (aqunchi?) buyuruqi edim;

(3-4) *öñtäniğ : tïdar ärtim:* – oldindan qo'riqlar edim;

(4-5) *kädiniğ iti ärür: ärtim* – ortni tartibga keltirar edim;

(6-7-8) *kök: täñiridä qutum: yuyqa boltī:* – ko'k osmonda qutum yuqa bo'ldiv

(8-9-10) *yayiz yärdä: yolim qışya : boltī* – yag'iz (qaro) yerda yo'lim (safarim) qisqa bo'ldi;

(11) *tägmišä : boltī* – (o'lim) tegadigan bo'ldiv

(12) *buqa: oyulim atī* – buqa o'g'limning otidir.

Matndagi badiiy ahamiyatga molik o'rindagi muallifning ijodiy

¹ Ushbu so'zning o'qilishida turlichalik mavjud. Biz *qunč[(u)y]* deb oldik.

niyatini anglash uchun umumiy matndagi leksemalar semantikasiga nazar tashlash kerak bo'ladi.

Bitigtosh matnidagi leksik birliklarning semantik-funksional xususiyatlari

Qunčuy Bitiglarda xoqon yoki xon xonadoniga mansub oliynasab qiz yoki ayolni anglatgan *qunčuy* so'zi xitoycha *gong zhu* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "imperatorning qizi, malika" degan ma'noni anglatishi qayd etiladi [DTS 1969, 466; Ölmez 1999, 59; Li 2017, 356]. Manbalarga ko'ra, *qunčuy* so'zi dastlab Xitoy imperiyasi tomonidan turk xoqonlari yoki tiginlarga (siyosiy maqsadlarda) xotin sifatida yuborilgan qizlarni nazarda tutish uchun ishlatilgan, keyinchalik mazkur xonimlar davlat ishlarida ham faollik ko'rsatgach, xoqon xonadoniga mansub rasmiy vakolatga ega xotinni nazarda tutish uchun qo'llanilgan [Clauson 1972, 635]. Shuningdek, u turk jamiyatida "oliyjanob insonning turmush o'rtog'i" [Кормушин 2008] sifatida bilingan. Qoraxoniylar davri hujjatlarida u "sayyida xotin: xonimdan bir daraja pastroq ayol" sifatida ko'zga tashlanadi [DLT III, 258]. O'rxun bitigtoshlarida asosan "malika" [KT 20; BX 16 va b.], Yenisey manbalarida esa "xotin" degan ma'nonlarda ko'zga tashlangan (Y/27, Y/25, Y/65 va b.) bu so'z Uyg'ur davriga oid Arxanan bitigida har ikki ma'noda – "xotin" va "malika" ma'nolarida istifoda etiladi. Aytish lozimki, ko'kturk davri bitiglarida [KT 20, 9; BK 17, 3] 𐰽𐰺𐰸 imlosi uchraydi, Arxanan, Tayhar Chuluu 3/1 va Yenisey matnlarida esa 𐰽𐰺𐰸 , "𐰽 - q" o'rniga "𐰽 - k" harfi ishlatilgan. *qunčuy*'ning (T. Barfildga tegishli) Turkiy xoqonliklardagi hukumat harbiy-idoraviy unvonlarining uch pog'onali tasnifida [Барфилд 2009, 18 – 19] birinchi, ya'ni (1) imperiyaviy hokimiyat va saroy amaldorlari qatlamida (*qayan* – "oliy hukmdor", *yabyu/yabyu-qayan* – "xoqon/qanot boshqaruvchisi", *qan* – "ulus yetakchisi: hukmdor", *šad* – "ulus boshlig'i, xoqonzoda", *šadapit* – "qanotlardagi harbiy amaldor", *tägin* – "xoqonzoda; vakil") sanalishi uning saroy ichi va tashqarisida ham bir qancha vakolatlarga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa Qarabalg'asun II bitigi ilk misrasidagi kabi *buyuruq* – "vazir (darajasida)" lavozimidagi shaxsning *qunčuy* – "malika"ga pog'onaviy bo'ysunishini ko'rsatadi. "(1) *qunčuy* (2) *buyuruq*: ärtim". Aytish lozimki, mazkur davrda turk qunchuy ("malika") sharafiga o'rnatilgan alohida bitiglarni ham ko'rish mumkin¹.

¹ T.Battulga tomonidan birinchi marta nashr etilgan besh qatorli Bombogor bitigi Qarluq qavmiga turmushga chiqqan turk qunchuy ("malika") sharafiga o'rnatilgan qabr toshidir [Şirin 2015, 1 – 9].

Buyuruq. “qo’mondon; o’rinbosar”, “vazir, buyruq beruvchi”, “gubernator” [Pasanen 1969, 87; Erdal 1991, 231; ДТС 1969, 121] ma’nolaridagi *buyuruq* S. Klausonga ko’ra, “dastlabki davrda ma’muriy yoki harbiy lavozim unvoni, aftidan, xoqon tomonidan muayyan vazifalarni bajarish uchun buyurilgan barcha shaxslar uchun umumiy atama” deya baholanadi (Caluson 1970, 387). Manbalarda ikki xil: *buyruq* va *buyuruq* shakllarida ko’zga tashlanadigan mazkur istiloh Qarabalg’asun II bitigida *buyuruq* o’qilib, bevosita harbiy unvon sifatida ishlatilgan (Rysbek 2015, 32). Unvonning qadimgi turkcha *buyur-* “buyurmoq, amr qilmoq” fe’lidan yasalganini sezish qiyin emas. Ushbu asos (*buyur-*) “Devonu lug’otit-turk”da mavjud [DLT, I, 316], lekin qadimgi bitigtoshlardan tashqari ushbu asar [DLT] yaratilgan davrgacha bo’lgan boshqa manbalarda ko’zga tashlanmaydi. Uyg’ur xoqonligining markaziy boshqaruvi – saroyda hukmron xonadon a’zolaridan tashqari *buyuruq* derivati bilan ifodalangan harbiy vazirlar ham joy olgan. Istiloh O’rxun-Yenisey obidalaridan Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglarida uchraydi: “*buyuruqi yäma biligsiz ärinč* – vaziri ham johil ekan” [KT, 35]. Hokimiyat ishlarida buyruq, amr va farmonlarni berish birinchi navbatda bosh hukmdor – xoqonning vakolatiga kirganligi nazarda tutiladigan bo’lsa, “vazir” ma’nosidagi mazkur istilohning aynan *buyur-* fe’lidan yasalgani diqqatga sazovordir. A. Donuk *buyruq* terminini “hukumat a’zosi” (vazir) tarzida izohlaydi va uning “unga bo’ysunadigan jamoalarning ma’muriy-harbiy ishlarini tartibga solish uchun markaziy ravishda tayinlangan yuqori mansabdor shaxs”ni [Donuk 1988, 12] anglatganini aytadi. Shuningdek, tadqiqotlarda *buyruq* ko’plik shakl sifatida [Giraud 1999, 127] va “yuksak vazifali qo’mondon” [Tekin 2000, 242] ma’nosida ham izohlanadi. Qarabalg’asun II bitigida mazkur unvonning ko’proq ikkinchi ma’nodagi izoh – “yuksak vazifali qo’mondon” mos keladi. Chunki, u bu yerda shunchaki mulozim emas, malikaning maxsus topshiriqlarini ijro etish bilan birga, uning xavfsizligi uchun javobgar shaxs hamdir. Qolaversa, *buyuruq* “harbiy yoki fuqarolik burchlarini bajarishga mas’ul va xoqon qo’mondonligi ostida ishlaydigan davlat xizmatchisi” [Şirin 2016, 395] ham edida.

Aytish kerakki, ushbu leksema “uyg’ur davri matnlarida *buryuq* shaklida (metatezaga uchrab) *bägdan* quyi, *inäncdan* yuqori daraja kasb etgan” [Malov 1951, 443]. Buni quyidagi jumalalarda kuzatish mumkin: “*bägkärü ötünti ol buryuqi* – buryuq (buyruq) begga ta’zim qildi” [OY, 638/1]; “*qatunlar tigitlär bäglär buryuqlar inančlar tayančlar arqası* – xotunlar, shahzodalar, beklar, buyruq

(vazir)lar, inanchlar, tayanchlar” [OY, 417/1]. Ushbu unvon nomi aynan “buyurmoq” fe’lidan yasalishi, albatta, uning boshqaruvda egallagan mavqeyi bilan bog’liq. Demak, “xoqonlikda bosh hukmdordan tashqari asosiy buyruqlarni beruvchi amaldor – vazirlarning *buyruq* deb atalishi, ularning hukumat ishlarida katta mavqega ega bo’lganliklari va hokimiyat ishlari bilan bog’liq asosiy amr hamda farmonlarni chiqarishda vakolatli bo’lganligini ko’rsatadi” [Boboyorov 2018, 136]. Mahmud Koshg’ariy *buyruqni biruq* shaklida qo’llaydi va uni darajasiga ko’ra xoqonga eng yaqin shaxs sifatida “shoh yonida kattalarni o’z joyiga o’tkazuvchi kishi” deya ta’riflab, uni asli *buyruq* – buyuruvchi, amr etuvchi, deb ko’rsatadi. Chunki u ma’nosiga ko’ra biror ishda o’zidan quyidagi darajadagilarga buyruq berganligini qayd etadi [DLT, I, 316, 359]. QBda ham *buyruq* (bir o’rinda) va *buyur* so’zlari bitiglardagi ma’no hamda vazifada tilga olinadi: “*Yämä yaxši aymiš bu türk buyruqi* – Yana aytmiş bu turk kishisi” (QBK, 50), “*Yarayliḡ äränkä buyurdi işi* – vazifani ishonchli kishiga topshirdi” [QBK, 6]. Qadimgi turk bitigtoshlarida davlat yuksalishining asosiy sababchilari haqida gap borar ekan, xoqonlar bilan birga boshqa amaldorlar emas, aynan vazirlar (xususan, *buyruqlar*)ning *bilga (dono) xoqon ekan, alp (bahodir) xoqon ekan, buyruq (vazirlar)i ham bilga va alp ekan* mazmunida tavsiflanganligi, aksincha xoqonlik tanazzulining asosiy aybdorlari sifatida ham xoqonlarning, ham vazirlarning *biligsiz (johil) xoqon o’rnashgan ekan, yablaq (yomon) xoqon o’rnashgan ekan, buyruqlari ham biligsiz ekan, qo’rqoq ekan* [KT, 101 – 103] tarzida ayblanganining guvohi bo’lish mumkin (Boboyorov 2018, 136).

(Ä)rd(i)m. Bu so’zni B. O’zundar *(ä)rd(ä)m* – “fazilat” deb o’qishni ma’qul ko’radi, ammo undan oldingi *buyuruqi* bilan birga birikib *buyuruqi(ä)rd(i)m* – “vazirning fazilati” ma’nosini anglatganda matnning umumiy ma’nosiga mos tushmaydi, chunki uchinchi shaxs birlik egalik qo’shimchasi to’ldiruvchi elementda emas, balki u kerak bo’lgan joyda to’ldiruvchida paydo bo’ladi [Alimov 2015, 32]. Bunda grammatik bog’lanish va kontekstual moslik nuqtayi nazaridan so’zning *(ä)rd(i)m* – “(Men) edim” o’qilishi (M. Shinehuu, N. Bazilhan va M. O’lmaz kabi) to’g’ri bo’ladi. Shunda *ä(r)*- – asos, *-di* – o’tgan zamon shakli, *-m* – I shaxs birlik shaxs-son shakli. Ushbu leksema bitigning keyingi satlarida ham “edim” ma’nosida keladi: (2) *buyuruqi: ärtim* (buyuruqi edim); (3) *öñt(ä)n(i)g: tïd(a)r* (4) *ärtim* (oldindan qo’riqlar edim) (4): *käd(i)n(i)g* (5) *it(i) (ä)rür: (ä)rt(i)m* (ortni tartibga keltirar edim). Aytish kerakki, *ärtim* to’liqsiz fe’l shakl o’laroq, o’zidan oldingi so’z bilan eliziyaga uchragan holda qadimgi

turkcha matnlarda ko'zga tashlanmaydi.

Öñtänig. Leksema *öñ* – asos, *-tän* – ablativ (dan, -dan turib, manbaa sifatida), *-ig* – nisbiy/munosabat ko'rsatkichi (soyalanma qism, nisbiy kelishik xususiy shakli) orqali shakllanib, asos - *öñ*-qadimgi turkchada to'rt asosiy yo'nalishdan biri – “sharq”ni anglatsada, uning ushbu davrda bir qancha potensial semalari mavjud bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, bitigtoshdagi “(3) *öñt(ä)n(i)g: tïd(a)r* (4) *ärtim*” jumlasini “sharqdan qo'riqlar edim” mazmunida tushunish juda jo'n talqin bo'lib qoladi. Falsafiy mushohada zamiriga qurilgan mazkur bitigdagi asosiy so'zlarning majoziy ma'noga xoslangani hisobga olinsa, undagi *öñt(ä)n(i)g* (shuningdek, *käd(i)n(i)g*) so'zini ham kengroq planda talqin qilish talab etiladi. Bunda ushbu tomon bilan bog'liq birliklarning semantik xususiyatlariga e'tibor qaratamiz. Aytish lozimki, ushbu so'zning asosi manbalarda *öñ/oh* shakllarida parallel uchraydi. DLTda ikki variant mavjud. Shuningdek, leksema manbalarda quyidagi ma'nolar bilan uchraydi:

YO'NALISH – “old”, “o'ng”, “sharq”: “oldinda turuvchi, bosh yo'nalish, boshlanish maskani”.

Öñ – “o'ng tomon, yo'nalish nomi”. Bu so'z uyg'ur-turk tilidan beri barcha tarixiy lahjalarda qo'llanilgan [Clauson 1972, 166 – 167; Eraslan 2012, 592; Tokyürek 2018, 540]. “*Öñtün küntün buluşda ögrünçlüg yäl yäldirdi* – sharqdan (so'zma-so'z tarjimasi: oldingi burchakdan) va janubdan quvonchli shamol esdi” [DTS, 386]. Ushbu leksema O'rxun bitigtoshlarida *-ra* kelishigi bilan birikib, aynan “o'ng tomon (sharq)” ma'nolarida ko'zga tashlanadi: “*Türük budun: öñrä: kün: toyusiqana: kisträ: kün: batsiqiña: tägi:*” [BA, 2]; “*öñrä kün toyusuqdaqi: bodun: kisträ ay toyusuqdaqi: bodun:*” (Tar, 3); “*bilgüsin üçün öñrä: kün toysiqdaqi bodun*” (Tes, 18); “*sü yoridi: özümün öñrä: biña: baši: iti:*” [MCh, 6]; “*anta sançidim äbi: on kün öñrä ürküp barmış anta:*” [MCh, 31].

Öñ – “to'g'ri; old”. Ushbu ma'no ham DLTda ko'zga tashlanadi, bunda ushbu so'z turlanib keladi: *öñdün* – “to'g'ridan” (*öñdün yurit* – otingni to'g'ridan sol, oldindan yurgaz). O'g'uzlar bu so'zni qo'shimchasiz yuqoridagi ma'noda ishlatigan [DLT I, 76, 138]. QBda *öñ*'ning yuqoridagi ma'nosi bilan bog'liq *öñdin* – “oldin” (*Qamuy aşnuda sän sän öñdin kädin* – Hamma narsadan Sen oldin, oldda va ortda [QBH, 10₂₇]; (*Qamuy işkä öñdün joritsu älig* – Hamma ishga avval qo'l yuritsin” [QBN, 3927; QBN, 5353] kabi shakllari mavjud.

Öñ – “qarshisida, ro'parasida (yuzma-yuz), qoshida”. So'zning bu ma'nosi QBda oydinlashadi: “*Mälikniñ öñindä oqumiş muni* – Malikning qarshisida buni o'qidi” [QBH, 7₁₀]. DLTda *öñrä* –

“chalqancha” soʻzi ham tilga olinadiki [DLT III, 388], bunda ushbu soʻz “yerga nisbatan oldi bilan (yuzma-yuz)” holat yoki harakatni anglatadi.

AKSIAL SEMANTIKALAR – “toʻgʻri”, “haqiqiy”, “rost”, “qonun”, “tartib”, “najot”, “xavfsizlik”: *öŋ* = tartib, haqiqat, rost yoʻl.

öŋ – “haqiqiy”. Bu soʻz uygʻur va keyingi davrda qoraxoniylar, xorazm, qipchoq va chagʻatoy turk davrlaridagi asarlarda shu maʼnoda uchraydi [Clauson 1972, 166–167]: “*Tärslı öŋlı ädgülı ayylı iki Türüg qılınč qılsar*” [DTS 1969, 367]; “*Uquşuy ađirtıy bılgdä öŋı/Nägü täg turur ay sözüññüŋ öŋı*” [KB, 1833] [Arat 1947, 200].

Öŋ – “qulay; oson”. Bu noodatiy maʼno DLTda uchraydi, unda u *öŋay* soʻzining qisqa shakli ekanligi aytiladi: *öŋ iş – oson ish* [DLT I, 76] [Ercilasun va Akkoyunlu 2014, 19; DTS 1969, 367]. Keyingi davrda *öŋay* – “qulay” soʻzidan *öŋaylık* – “qulaylik” soʻzi shakllanib, manbalarda “oson, harakatlanuvchi” [DTS 1969, 367], “bardoshli”, “omad” maʼnolarida ishlatila boshlandi. Shuningdek, DLTda *öŋakay* – “oʻng, qulay” maʼnolarida izohlanadi.

Öŋ – “omad, taqdir”. Bu soʻzning ishlatilishi qoraxoniylar davri asarlarida aniqlangan [Güler 2025, 1259–1283]: “*Quluy käd sınayu qılınçı yanı/ Uquşı täñinčä tägürgü öŋı*” (KB, 4080) (Arat 1947).

Öŋ – “xavfsizlik, tinchlik, najot [Güler 2025, 1259–1283]; yoʻriq”. “*Asrovıñ bizgä täyirgil, mänülik öŋgä tätkirgil*” [Argunşah va Güner 2015, 382]. QBda yuqoridagi maʼnolarga monand *öŋdi* soʻzi koʻzga tashlanib, “qoida, qonun” maʼnolarida oydinlashadi: “*Bu janlıy turur bu ađun öŋdisi saranqa söküşı aqı ögdisi*. – Bu dunyo qonuni shunday: yomonga – soʻkish, saxiyga – maqtov” [QBK, 175₅].

JARAYONGA OID SEMANTIKALAR – “yaxshilanish”, “oʻnglanish”, “tuzalish”: metaforik jihatdan “hayot tartibining tiklanishi / boshqarilishi”.

Öŋ – (feʼl sifatida) “yaxshilanish; tuzalish; ijobiy rivojlanish”. Manbalarda *öŋal-/öŋul*¹ va *öŋar*- feʼllari ham borki, G.Klauson bu soʻzlarning kelib chiqishini *öŋa*- nom feʼliga bogʻlaydi. Uning taʼkidlashicha, *öŋal-/öŋul*- soʻzlari birinchi marta uygʻur-turk tilida paydo boʻlib, bulardan *öŋul*- talaffuzi qadimiyroqdir [Glauson 1972, 185]. *öŋa*- soʻzi qoraxoniylar davri matnlarida “tuzatish” maʼnosida uchraydi: “*Öŋayalı irpaldi iş*. – Ish uni tuzatishga urinayotganda buzildi” [DLT III, 128/113].

RANGGA OID ARXISEMA – “rang, jilva”: dunyo tuzilishidagi “nur/yorugʻ” tamoyiliga yaqin.

¹ Tadqiqotlarda koʻra *oŋul*- soʻzi *oŋa*- feʼlidan majhul ovoq qoʻshimchasi *-l* bilan shakllangan [Özyetgin 2001, 38].

Shuningdek, *öñulti / öñulti / öñuldi, öñländi* – “o’ngaldi (o’nglandi); tuzaldi; ranglandi” so’zlari ham borki, bu shakl (asosan) kasalning sog’ligi yaxshilanishiga nisbatan ishlatilgan. Ushbu so’zga zid ma’noda QBda *öñ-* fe’li “rangi o’chmoq, oqarmoq” tarzida izohlanadi: “*Jüzi qizdi öñdi* – Yuzi qizardi, rangi xiralashdi” [QBH, 110₁₁]. Bunda QBdagi *öñ-* (*öñdi*) fe’li kasalning og’irlashishini anglatasa, DLTdagi *öñlän-* (*öñländi*) fe’li kasalning yaxshilanishini anglatadi. O’zbek tilining qipchoq lahjasidagi *öñaril-* fe’li bevosita “tuzaldi; rivojlandi; (ishi) yurishdi” ma’nolarida ishlatiladi. Yana bir e’tiborli jihat, QBdagi “*Jüzi qizdi öñdi*” jumlasidagi *öñdi* so’zining “rangi xiralashdi, rangsizlandi” ma’nosida kelayotgani hisobga olinsa, bunda *öñ* so’zining qadimgi turkchadagi ranglar bilan bog’liq arxisemasi faollashgan bo’lishi ham mumkin. *öñ* asarda “rang, bo’yoq” ma’nosida ham uchraydi (*Azun qirişi boldi altun öñi* – Olam yopinchi’i oltin rangga burkandi [QBN, 406₂; QBN, 5549]. Qolaversa, ushbu asarda *öñdürdi* so’zi “rangi o’zgardi” ma’nosida qo’llaniladi: “*Jana turdi anča bu oldurdi-ja, sariy tañ ata kaldi öñdürdi-ja* – Yana turdi, ancha vaqt o’tirdi, sariq tong ota boshladi, rangini o’zgartirdi [ya’ni yorug’lashdi]” [QBN, 427₁; QBN, 5846].

Käd(i)n(i)g. *Käd* topoleksemasi O’rxun bitigtoshlarida tarafga ishora qilib, asosan “g’arb, kun botar”ni anglatib keladi. Quyidagi olingan misollarda uning aynan shu ma’nosi reallashadi: “*anta: idiq jär: kädintä: Aybaš Tuquš: bältärinti: anta yayladim:* (MCh, 21)”; “*Ötükän kädin učinta: Töz başinta: örügün* (Tar, 1)”; “*İduq başi kädinintä: yayladim.* (Tar., 2)”; “*Ötükän: quzi kädin učı ... qiçlayim* (Tar., 5)”; “*Ötükän: ortusunta : kädinin örügin: bunta: ätdim* (Tar., 30)”. Ushbu so’zning *kädin* asosi qoraxoniylar davri manbalarida quyidagicha ma’nolarda tilga olinadi: *kädin* – “keyin” [DLT I, 230], *kädin / kädin* “keyin, orqada” (*Nägü tæg bolur sän mäniñdin kädin* – Mendan keyin qanday yashaysan? [QBH, 51₃]; *Baqar soldin ondin häm öñdin kädin* – O’ngdan, chapdan, oldindan, orqadan boqar [QBN, 142₁₁; QBN, 1824]. Shuningdek, eski turkiy tilda *käd* so’zi ham ko’zga tashlanadiki, uning “mustahkam, asosiy(si), muhim, alohida” ma’nolarida qo’llanishi e’tiborga molik: “*Öz igdiš käräk käd sinamiš jilin* – Mohir Igdish (qabila), asosiysi, yillar mobaynida sinalgan bo’lishi kerak” [QBN, 213₈; QBN, 2845]. Chunki tahlil qilinayotgan so’zning bunday ma’nolari “*kädinig iti ärür: ärtim*” jumlasidagi *käd(inig)*’ni shunchaki tomon (g’arb) ma’nosida o’girib bo’lmasligini anglatadi. Shu jihatdan bitigdagi *käd(i)n(i)g* so’zini “oxiridagi, orqasidagi” yoki qandaydir konnotativ ma’nolarda talqin qilinishi kerak, chunki bu so’zlar matnning umumiy uslubida hukmronlik

qilgan mantiqiy ziddiyat – kontrastga to'g'ri keladi [Alimov 2015, 32]. Aytish kerakki, qadimgi turkchadagi *käd* va *kädin* so'zlari *käd* ~ *kät* / *kädin* ~ *kätin* ~ *kägin* ~ *käyin* (*adaq* ~ *adaq* ~ *ayaq* ~ *ayay* kabi) shaklida fonetik o'zgarishga uchradi. Hozirgi o'zbek tilida *kät* va *kätin* / *kägin* / *käyin* shakllari quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi: *kät* – “1. orqa; 2. tana orqa qismi (beldan past); 3. poyon; 4. oxiri” [O'TIL III, 342]; *käyin* – “1. so'ng; 2. avvalgisining ketidan; 3. orqa; ket; 4. yana; 5. o'tgach”; *käyinki* – “1. navbatdagi; 2. orqadagi; 3. so'nggi; 4. yangi” [O'TIL III, 358]. *käd(in)* so'zining yuqoridagi davriy turli ma'nolarini umumiy tahlil qilib, bitigtoshdagi “(4-5) *kädinig iti ärür: ärtim*” jumlasini “ortni tartibga keltirardim” shaklida talqin qilish bitig umumiy matniga mos tushadi.

Tid(a)r (ä)rt(i)m va **iti ärür: ärtim**. M. Shinehuu bu shaklni *atidar it(d)im* – “Sharq xalqiga boshpana berdim” sifatida taqlin qilgan, N. Bazilhan esa *iti ärür: ärtim* – “Sharqni otda vayron etdim” kabi o'qigan, ammo qadimgi turkcha “boshpana berish” ma'nosini anglatuvchi *atid-* fe'li yoki “parchalamoq” ma'nosini anglatuvchi *id-* fe'li uchramaydi. Ba'zi manbalarga ko'ra, *öñtün-kidin*, *kök täñri-yayüz yär* kabi antonimlarning, shuningdek, keyingi qatordagi *itär-* – “itarish, harakatlantirish” fe'lining paydo bo'lishi hisobga olinganda, bu so'z oxirgi fe'lning kontekstual antonimi bo'lishi kerak bo'ladi [Alimov 2015, 32]. O. Barutchu va M. O'lmaz *tid-* fe'lini to'g'ridan to'g'ri “to'sqinlik qilmoq” deb tushunadilar, tarixiy va zamonaviy turk tillarida esa, S. Klauson ta'kidlaganidek, “to'xtatmoq, tiymoq, cheklamoq” kabi boshqa ma'nolarga ham ega [Klauson 1970, 450]. Demak, *tid-* / *tit-* / *tid-ar* qadimgi turk tilida “qo'riqlamoq, asramoq, tartibni saqlamoq” ma'nolarida gavdalanib, bitigda konnotativ jihatdan majoziy ma'nolarda qo'llanilgan.

Bitigning “(3-4) *öñtäniğ : tidar ärtim: (4-5) kädinig iti ärür: ärtim*” jumlasiga xulosa:

Demak, mazkur jumladagi topoleksemalar shunchaki odatiy geografik yo'nalishlarni (“Sharqdan qo'riqlardim – G'arbni tartibga keltirardim”) bildiruvchi birlik emas. *Öñ* va *kädin* leksemalarining qadimgi turk tilidagi ko'p qavatli semantik tizimi, ayniqsa *öñ*'ning “old, haqiqat, tartib, asosiy yo'l, rost taraf, xavfsizlik, najot” kabi majoziy qatlamlari bu birikmani falsafiy-kayhoniy vazifa tasviri sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shunga ko'ra, mazkur jumla noma'lum muallifning kayhoniy va ijtimoiy tartibning ikki qutbini – old (*öñ*) va orqa (*kädin*) yo'nalishlarini saqlovchi va barqarorlashtiruvchi shaxs sifatida tasvirlanishini anglatadi: “*Men old tomonni – rost yo'l, haqiqat va tartib tarafini qo'riqlab turar edim; orqa tomonni – tayanch va*

davomiylik tomonini esa tartibga solib, muvozanatda ushlardim”.

Bitigtoshdagi nazmiy parcha: saj'ning antiteza usulida berilishi

Ushbu maqolada tadqiqqa etilishi zarur bo'lgan yana bir asosiy masala – matnning ikkinchi qismi (6-10-qatorlar), bitigtoshdagi nazmiy o'rin – saj'dagi antitezani shakllantirgan leksik vositalarni o'rganishdir. Bitigtoshning birinchi qismi muayyan adabiy xususiyatga ega bo'lib, matn cho'qqisiga chiqqan ikkinchi qismda yuksak badiiyat namoyon bo'ladi. So'nggi – uchinchi qism esa badiiylikning biroz quyi darajasini ko'rsatadi. Bitig matni she'riyatga xos bo'lgan adabiy vositalarni o'z ichiga oladi, lekin bu xususiyat butun matn davomida muntazam va tartibli takrorlanmaydi. Aytish kerakki, bitig davr yodnomalaridan “aralash – nasr-nazm” shaklda ekanligi, ya'ni nasriy matn ichida she'rga yaqin parcha borligi bilan farqlanadi. Turkiy adabiyotga nazar tashlanganda bunday usulning eng qadimgi va yorqin namunalarini o'zbek folklorida ko'rish mumkin. Xalq dostonlari uchun asosiy tasvir usuli bo'lgan nasr ichida nazmga o'tilishi asarning badiiy qimmatini oshirgan va o'quvchi yoki eshituvchiga estetik zavq bergan. Shu o'rinda mazkur badiiy hodisa bilan bog'liq ikki tushunchani farqlab olish lozim. Asarlarda nasriy matn ichida gap bo'laklari, asosan kesimi qofiyadosh bo'lgan qo'shma gaplar saj' sifatida olinadi [Мусулмонқулов 1970, 26]¹. Masalan, “*Fayzi sahar vaqti Tarlonni jabduqlab mindim. Katta ko'chada ohista qadamlatib-qadamlatib yurdim*” [Tog'ay Murod 2018, 419]. Asar syujeti nasrda berib borilib, shiddatli voqealar (masalan, otlar yugurishi yoki janglar tasviri), o'zaro savol-javob tasvirlarining she'riy shaklda berilishi (xalq dostonlarida asosan 7-8 bo'g'inda) nasriy-nazmiy – aralash, ya'ni liro-epik janr sifatida ko'riladi. Masalan, “Alpomish” eposidagi otlar poygasi tasviri yohud boshqa tasvirlar bunga misol bo'la oladi. Shu nuqtayi nazardan Qarabalg'asun II bitigi matnining ikkinchi qismi (6-10-qatorlar)dagi tasvirni saj'dan ancha yuqori darajadagi badiiy hodisa, lekin hajman o'ta qisqa bo'lgani uchun liro-epik janr mahsuli bo'lmagan ilk o'rta asr turkiy adabiyotiga xos badiiy topilma sifatida qabul qilish mumkin. Ya'ni “qat'iy she'riy tizim, talab qilingan adabiy vositalar mukammal bo'lmasa-da, badiiy ta'sirchan qo'llanishi bilan Qarabalg'asun II yodnomasi anchayin she'riy shaklga yaqindir” [Hasan 2025, 257–

¹ R.Musulmonqulov *saj'*ga shunday ta'rif beradi: “Saj' nasriy gaplar oxiridagi ikki yoki undan ortiq so'zlarning qofiyada yoki vaznda, yoki har ikkalasida barobar kelishidan iboratdir”.

283].

Bitigtoshdagi asosiy badiiy tasvir quyidagi ikki misra orqali anglashadi:

(6-7-8) *kök: Täñiridä qutum: yuyqa bolti:* – Ko'k osmonda qutum yuqa bo'ldi.

(8-9-10) *yayiz yärdä: yolim qišya: bolti* – yag'iz (qaro) yerda yo'lim (safari) qisqa bo'ldi.

Qunchuy – malika vaziri bo'lgan shaxs (yurtni?) Sharq va G'arbdan qo'riqlab, uni tartibga keltirdi. (Ammo hayot beshafqat) Uning ko'k osmonda quti yuqa bo'ldi, yag'iz (qo'ng'ir) yerda nasibasi qisqa bo'ldi (tiyildi). O'limi aniq bo'ldi. O'g'lining oti Buqadir. Badiiy ahamiyatga ega "*kök: täñiridä qutum: yuyqa bolti, yayiz yärdä: yolim qišya : bolti*" jumalari matnning lingvistik va badiiy qimmatini belgilaydi. Bunda "noma'lum muallif hayot va o'lim o'rtasidagi farqni she'riy va nasr orqali farqlashga harakat qiladi. U hayotni o'z ichiga olgan birinchi qismdan so'ng, nasrda o'limni she'riy shaklda taqdim etadi. Asosiy nuqta she'riy shaklda ifodalanib, o'quvchi e'tiborini tortadi" [Hasan 2025, 275]. Ushbu ikkinchi qismda ohangdorlikni ta'minlagan yana bir muhim jihat ikki qatordagi so'z-tushunchalarning parallel ravishda o'zaro zid qo'yilishi – antiteza¹ orqali yuzaga chiqarilgan. Bunda dastlabki uchta so'z shartli antonimlik (*kök – yayiz, täñiri(dä) – yär(dä), qut(um) – yol(im)*), oxiridagi qo'shma fe'llar esa (*yuyqa bolti – qišya bolti*) ma'noviy yaqinlik hosil qiladi. Ikki misra, umuman butun matndagi qofiyani shakllantirgan birliklar ham ushbu misralar oxiridagi qo'shma fe'llar hisoblanadi. Endi matnda ma'noviy ziddiyatni hosil qilgan so'zlarning qadimgi turkiy tildagi semantik-funksional xususiyatlariga to'xtalsak.

Ma'lumki, qadimgi turkiy mafkuraga ko'ra dunyo uch yarus (qat)dan tashkil topgan edi: tepada *kök (ko'k)* – osmon, pastda *yayiz (qaro)* – yer, o'rtada *kiši oyuli* – inson bolalari. Buni Kul Tigin bitigidagi ilk misrada tilga olingan "*Üzä Kök Täñri asra yayiz yär qilinduqda ikin ara kiši oyli qilinmiş. Kiši oylinta üzä äčüm apam Bumın qayan, İstämi qayan oturmış* – Tepada ko'k osmon, pastda qaro yer yaratilganda ikkisining orasida kishi (inson) bolalari yaratilgan. Kishi (inson) bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istamiq xoqon taxtga o'tirgan" (KT 1) jumlasidan ham anglash mumkin. Qadimgi turk tilida *kök*'ning "osmon; qadimgi turklar xudosi Tangri qut"ni anglatishi ma'lum. Ushbu so'z *Täñiri* bilan birga qo'llanib,

¹ Antiteza, bu – so'z birikmasi, uslubiy shakl bo'lib, bir narsa yoki tushunchani unga zid bo'lgan boshqasi bilan keskin farqli darajada qarama-qarshi qo'yish orqali ifodalanadi. U nutqni yanada ravon va ta'sirchan qilish uchun ishlatiladi.

muallif uchun “taqdir va rizq manbayi”ni anglatmoqda. Qatorda *kök* soʻziga *yayiz* zid qoʻyilmoqda. Manbalarda qizil bilan qora oʻrtasidagi bir rang (qoʻngʻir) sifatida izohlangan [DLT III, 17] bu soʻz (rang) qadimgi turkiy tilda xuddi qora kabi quyidagi maʼnolarni anglatib kelgan: “1. qora, tim qora, xafa, baxtsiz; 2. xalq, omma, mol; 3. yer, quruqlik; 4. qiyalik” (Kononov 1975, 61). Bu oʻrinda *yayiz* soʻzi *yär* – “yer” leksemasi bilan birikib, muallifning kayfiyatini koʻrsatmoqda. Yaʼni, oʻzining ruhiy holatini muallif sifatlar leksemasidan juda oʻrinli foydalangan holda oʻquvchiga bayon etgan.

Misradagi *qut* bitigtoshlarda “baraka, omad, Xudoning marhamati” [Tekin 1988, 104], “hayotdagi osmonning kengayishi” [Roux 2002, 44] kabi maʼnolarni anglatgan. Mahmud Koshgʻariy lugʻatida *qut* soʻzi “baxt, davlat” [DLT I, 331], “Qutadgʻu bilig” (QB)da *qut* – “baxt, omad” [QBN, 11814; QBN, 1484], G. Klausonda “omad, baxt” maʼnosida qayd etiladi [Glauson 1972, 594]. Koʻrish mumkinki, *qut* bitigda “odamlarni baxtsiz hodisalar, ofat va falokatlardan himoya qiluvchi” kuch sifatida aks ettirilgan. Shuning uchun, B. Oʻzundar taʼkidlaganidek, Qarabalgasun II bitigi mazkur oʻrinlar bilan “Koʻk Tangrini tushunish uchun asosiy matnlardan biri” boʻlishi mumkin. Bitigdagi “oldinni qoʻriqlar edim”, “ortdagini tartibga keltirardim” iborasi ham dasht madaniyatida ijtimoiy adolatni tushunishdagi ramziy maʼnosi bilan diqqatga sazovordir [Alimov 2015, 29].

Misradagi ushbu *qut(im)* soʻziga parallel qoʻyilgan *yol(im)* soʻzini ham eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi. Chunonchi, qadimgi turkchada “omadli, baxtli” maʼnolari *yolluy* derivati bilan ifodalangan. U Bilga xoqon bitigtoshida matn muallifi nomi tarkibida qoʻllangan: “*Bilgä qayan bitigin Yolluy tägin bitidim* – Bilga xoqon bitigini (men) Yollugʻ Tigin yozdim” (BX XI). Darhaqiqat, *yolluy* soʻzi *yol* – “yoʻl” soʻzi va otdan ot yasovchi *-luy* affiksining qoʻshiluvidan yasalgan. *Yol* soʻzi eski turkchada “omad, tole” tushunchalariga monand “yaxshi yoʻl, toʻgʻri yoʻl” (oq yoʻl kabi) tarzda metafora qilinganligi bois *yolluy* ham ezgu yoʻlli, yoʻli porloq, yaʼni omadli, baxtli kabi maʼnolarga ega boʻlgan oʻziga xos nom sifatida ishlatilgan [Dustmurodov 2025, 122]. Jumladan, tuva tilida *yol* soʻzining asl maʼnosi unutilib, *chol* shaklida “baxt, omad, tole” maʼnolarida qoʻllanilib, eski turkcha *yolluy* tuvachada *choldug* – “baxtiyor, xursand” shaklida aniqlangan” [Şirin 2015, 144]. Eng ahamiyatlisi, Mahmud Koshgʻariy *yol* soʻzini “yoʻl” [DLT I, 426] va “safar” [DLT I, 87] deb izohlaydi. Demak, ikkinchi misradagi “*yayiz yärdä: yolim qışya : bolti*” jumlasini “yer yuzidagi umr safarim (toleyim) qisqa boʻldi, yaʼni umrim bitdi”

shaklida o'g'irish mumkin bo'ladi. Qolaversa, *yo'l* (*yo'l*) so'zi hozirda turkiy tillarda ham eski turkcha matnlardagi va boshqa ma'nolarda keng qo'llaniladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi "oq yo'l, yo'li ochiq, yo'li porloq, yo'lingizni bersin" kabi iboralar bevosita "omad, baxt, tole" tushunchalari bilan aloqador ravishda "uzoq va xatarsiz umr tilash"ni anglatadi. O'zbek tilida *yo'l* so'zi "yo'li bor, yo'l tushirilgan; o'rinni, jo'yali" ma'nolarda qo'llanadi [O'TIL II, 280].

Har ikki misrada ham tilga olingan "ne'matlarning nihoyalangani" misralar oxiridagi *yuyqa* va *qişya* so'zlari orqali anglashilgan. Ya'ni "ko'kdan berilgan madad quti (obihayot) yuqalandi (tugadi) va umr yo'lini ham shu joyda bitirdi (qisqa qildi). Misralar so'ngidagi *boltı* – "bo'ldi" radifi esa hukmni ifodalab turibdi. Ayniqsa, *qutum yuyqa boltı* parchasi qadimgi turkiy e'tiqod tizimining muhim tafsilotini namoyish etishi bilan bitigtoshning adabiy qimmatini ochib ko'rsatadi. Aytish kerakki, ushbu ikki sarni sabab va oqibat mazmunida tushunish to'g'riroq bo'ladi, ya'ni "Ilohiy quvvat mendan yuz o'girdi, baxtim pasaydi va alal-oqibat yerdagi yo'lim ham toraydi – hayotim og'irlashdi" demoqchi. Ushbu ikki misra uchun esa keyingi qatoridagi (11) *tägmişä : boltı* – "(o'lim) tegadigan bo'ldi" jumlası umumiy oqibat (natija) hisoblanadi. Tarixiy turkiy lahjalar bo'yicha leksikografik tadqiqotlarda ushbu yozuvda bo'lishi kerak bo'lgan ma'noga mos keladigan ekvivalenti mavjud bo'lmagani holda, N. Bazilhan *tägmişä boltı*, M. O'lmez (birinchi so'zni) *tägmäkä*, A.Rysbek *tägim*, B. O'zundar *ätigimaşa boltı* – "mening harakatlarim (ishlarim) tugadi" shakli va ma'nosida o'qigan ushbu birikmani M. Shinehuu *tägmäkä boltı* o'qib, "yo'qolib keta boshladi" deb talqin qiladi [Alimov 2015, 33], lekin bu o'qishlardan anglangan ma'no bitig mazmuniga mos emas. Shu o'rinda so'zning o'zagi bo'lgan *täg*-leksemasining manbalarda asosan "hujum qilmoq" ma'nolarida tilga olinishi diqqatga sazovor: "*Sü tägisintä yätinč ärig qiliçladi* – lashkar hujumida yettinchi erni qilichladi" [KT 45/5]; "*Tabyaç, bärdänäyin täg* – Tabg'ach sen o'ngdan hujum qil" (To'n 11). Demak, asosiy o'zak ma'nosi "tegmoq; o'ldirmoq; mag'lub etmoq" bo'lgan *täg*- fe'lidan hosil bo'lgan *tägmişä boltı* birkmasini "(o'lim) tegadigan (tegmish) bo'ldi" ma'nosida o'g'irish to'g'riroq bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham *teg*- fe'l-leksemasi bir qancha potensial semalar kasb etadi [O'TIL III, 342].

Demak, umumiy ma'noda aytish mumkinki, ushbu ikki misra turkiy ruhoniyy dunyoqarashga xos bo'lib, dastlabki qatorga (6-7-8-) ko'ra eng muhim so'z *qut* qadimgi turklarda "ilohiy baraka, davlat, hokimiyat, omad, hayotiy kuch, qadr-qimmat, osmonning insonga

bergan tiriklik manbayi” sifatida *qutum: yuyqa bolti* deyish orqali “ilohiy barakam kamaydi, osmon – Tangri menga bergan madad susaydi” deyilmoqda. Keyingi misralarda (8-9-10-) yerning *yayiz* deya atalishi – “qorong’u, qattiq, og’ir, sinovli” ma’nolarini beradi. *Yolim qishya bolti* esa “imkoniyatlarim toraydi, taqdir yo’lim to’sildi” ma’nosini anglatmoqda. Aytish kerakki, qadimgi turk dunyoqarashida bu kabi obrazlar orqali insonning quvvati, baxti, rohati osmon va yer bilan bog’lanadi. Ko’kdagi qutning yuqa bo’lishi – insonning ruhoniy dunyodan uzilishi, yerdagi yo’lning qisqarishi – hayotdagi nasibaning kamayishidir.

Xulosa

Qarabalg’asun II bitigida badiiylikni shakllantirishda atroflicha tanlangan leksik birliklar, semantik konnotatsiyaga ega so’zlar va bu so’zlarning nozik ma’nolaridan ustalik bilan foydalana olish asosiy bitig qimmatini oshirgan. Matndagi lingvistik birliklarning ahamiyati haqida gapirganda an’anaviy muallif yoki qahramonning nasl-nasabini tanitishga harakat qilishni aytish lozim. Bu bitigtoshda *qunçuy buyuruqi* unvonlari matnda so’zlovchining jamiyatdagi maqomi, siyosiy-harbiy kuchini ifoda etish bilan birga unga epik ruh beradi va o’quvchida tarixiy vaziyat haqidagi tasavvurni uyg’otadi. Juft – dualistik obrazlar matnda asosiy badiiy kuch *kök täñiri – yayiz yär* qarama-qarshiligi orqali beriladi. Bu antiteza qayg’u va fojiviylikni oshirib, o’lim motivini taqdiriylilik bilan bog’laydi hamda semantik uyg’unlik yaratadi. Matnda metafora hodisasi qutum *yuyqa bolti* iborasi orqali voqelangan. Bunda *qut’ni* jisman *yuyqa* – “yuqa” bo’lish bilan ifodalash metaforik kuchga ega. Majoz esa *yolim qishya bolti* – “yo’lim qisqa bo’ldi” iborasida ko’zga tashlanadi. Bu – “o’limning yaqinlashishi”ni bildiradigan poetik evfemizm.

Yuqorida aytilganidek, “yo’l” hayot yo’lini anglatadi, “qisqarishi” esa taqdirning tez yakun topishini ko’rsatadi. Bu majozlar matnga ruhiy dramatism va falsafiylik beradi. Umumturk kishisi va bir qancha bitigtoshlar uchun xos bo’lgan harbiy burch ham unutilmaydi, muallif, avvalo, turk kishisidir. Bitigda qo’riqqa oid so’zlar (*öñtäniğ tidar ätim, kädiniğ iti ärür ärtim*) ko’zga tashlanib, bu birliklar qahramonning o’tmishini bildirish bilan birga uning jasorati, davlat uchun xizmatini epik kontekstda ochib beradi. Shuningdek, bitigda fe’llardagi ovoziy yaqinlik (*äritm / ätim / ärtim*), *takror (bolti / bolti)* hamda semantik juftliklar (*täñri – yär, qutum – yolim*) kabi til imkoniyatlaridan mohirona foydalana bilingan.

Aytish mumkinki, Qarabalg'asun II bitigi matnining ikkinchi qismi (6-10-qatorlar)dagi tasvirni saj'dan ancha yuqori darajadagi badiiy hodisa, lekin hajman o'ta qisqa bo'lgani uchun liro-epik janr mahsuli bo'lmagan ilk o'rta asr turkiy adabiyotiga xos badiiy topilma sifatida qabul qilish mumkin. Muayyan tartibli tizim va hozirgi kunda she'riy shakl oldiga qo'yilgan talablarga to'la javob bermasa-da, ranglar va ikki qutb singari ilohiy tushunchalarni falsafiy maqsadiga bo'ysindira olgani holda, vositalarning badiiy ta'sirchan qo'llanishi bilan mazkur yodnoma o'z davri uchun adabiy muhim topilma namunasi bo'la oladi. Nafaqat matnning cho'qqisi bo'lgan ikkinchi qismda, balki ilk qatorlarda ham o'ziga xos parallelizm, qofiya va hukmning takrorlanishi – radif orqali nutqiy musiqa yaratilgan. Bu matnda yaxlit uyg'unlikni ta'minlab bergan. Eng muhimi, noma'lum muallif o'zi timsolida qadimgi turkiy kishisi, umuman, odam bolasining umr yo'lini (tug'ilish – umr – o'lim) *ko'k* (osmon) – beruvchi va *yag'iz* (qaro) yer – oluvchi ziddiyatidan tug'ilgan hayotiy bir butunlik shaklida dualistik tasvirda ochib bergan. Butun antiteza usulida yaratilgan ushbu bitigda matn so'ngida buqa o'g'il nomi (yoki epiteti)ning tilga olinishi matnga qahramonlik va totemik jumboqlilik bag'ishlashi bilan birga, quvvat, qudrat, kuch ramzini anglatib, hayot davomiyligini ham ifodalaydi.

O'rduvaliq II (Xarbalgas // Qarabalg'asun II) bitigi.



Qisqartmalar

- BA – Bilga Atachim bitigi.
BX – Bilga xoqon bitigi.
DLT – “Devonu lug’otit turk”. Toshkent: 1960–1967.
HO’AT – Hozirgi o’zbek adabiy tili.
KT – Kul Tigin bitigi.
MCh – Mo’yun Chor bitigi.
OY – “Oltun yorug’”.
O’TIL – O’zbek tilining izohli lug’ati.
O’XSHL – O’zbek xalq shevalari lug’ati.
O’TEL – O’zbek tilining etimologik lug’ati. I tom. Toshkent: 2000.
O’TIL – O’zbek tilining izohli lug’ati. V tomlik. Toshkent: 2007.
O’XShL – O’zbek xalq shevalari lug’ati. Toshkent: 1971.
QB – “Qutadg’u bilig” asari:
QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” S. Qohira nusxasi (Dāru’l-kutub va’l-vasāiki’l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).
QBN – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” B. Namangan nusxasi (Farg’ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo’lyozmalari markazi 1809).
QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).
QTT – Qadimgi turkiy til (G’Abdurahmonov va b.)
s. – sug’dcha.
sans. – sanskritcha.
Ta – Taryat bitigtoshi.
Tar – Taryat bitigtoshi.
Tes – Tesiyn bitigtoshi.
To’n – To’nyuquq bitigtoshi.
xit. – xitoycha.
Y – Yenisyey bitiglari.
ДТС – Древнетюркский словарь. – Л.:Наука, 1969.
ҚТТ – Қадимги туркий тил. Абдурахмонов Ғ, Рустамов. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 103 б.
ПДП – Памятники древнетюркской письменности
ПДП – Памятники древнетюркской письменности. –Москва-Л, 1951.
СИГТЯ – Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.
ТС – Тюркологический сборник.
ЭСТЯ – Этимологический словарь тюркских языков.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, А. “Туркий адабиётнинг қадимий қатламлари. 1-қисм. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turkiy-adabiyotning-qadimiy-qatlamlari-birinchi-qism.html>
Alimov, Rysbek. 2015. “II. Karabalgasun Yazıtı”, *Modern Türklük Araştırmaları Dergisi* Cilt 12(4). 27 – 38.
Arat, Reşid Rahmeti. 1947. *Kutadgu Bilig Metin*. İstanbul: Millî Eğitim

- Basımevi
- Argunşah, Mustafa ve Güner, Galip 2015. *Codex Cumanicus*. Ankara: TDK Yayınları.
- Барфилд, Т. 2009. *Опасная граница: кочевые империи и Китай* (221 г. до н. э. – 1757 г. н. э.). 18 – 19. Пер. Д. В. Рхлядева, В.Б. Кузнецова; науч. ред. и пред. Д. В. Рхлядева. СПб.
- Barutcu, Özönder Sema. 2001. "Eski Türk Çağı Yazıtları: II. Kara Balgasun Yazıtı", *KÖK Sosyal ve Stratejik Araştırmaları Dergisi*, sayı III/1: 179 – 183.
- Bazilhan, N. 2005 *Kazakistan tarihiy tuwralı turki derektemeleri*, II tom. 152 – 193. Almatı: Dayk-Press.
- Бобоёров, Ғ. 2018. *Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми*. Тошкент: Янги нашр.
- Bold, L. 2000. *Orhon Biçgiyn Dursgal I*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjleh Uhaanı Akademi. 248 – 257.
- Bold, L. 2006. *Orhon Biçgiyn Dursgal II*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjleh Uhaanı Akademi. 249 – 254.
- Bold, L., Tseveendorj D. 1990. *BNMAU-ın Nutag Dah' Hadnı Biçees: Türeg Biçgiyn Dursgal*, Ulaanbaatar: Ulsın Hevleliyn Gasar. 126 – 127.
- Clauson, G. 1972. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University.
- DLT – Маҳмуд Кошғарий. 1960 – 1963. *Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк)*. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. Тошкент: Фан.
- Donuk, A. 1988. *Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler*. Istanbul.
- Dusmurodov, M. 2025. *O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi*. Toshkent: Lesson Press.
- DTS – *Древнетюркский словарь*. 1969. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. Л.: Наука.
- Eraslan, Kemal. 2012. *Eski Uygur Türkçesi Grameri*. Ankara: TDK Yayınları.
- Ercilasun, Ahmet Bican ve Akkoyunlu, Ziyat. 2014. *Kâşgarlı Mahmud Dîvânı Lugâti't-Türk (Giriş-Metin- Çeviri-Notlar-Dizin)*. Ankara: TDK Yayınları
- Erdal, M. 1991. *Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the Lexicon. Volume: I.* – Wiesbaden.
- Gabain Annemarie von. 1956. "Inhalt und magische Bedeutung der alttürkischen Inschriften". *Anthropos*. 537 – 556.
- Giraud, R. 1999. *Göktürk İmparatorluğu* (çev. İ. Mangaltepe). Ankara: Ötüken Yay.
- Güler, E. 2025. Sağ Yönün Kavramsal Üstünlüğü ve Dile Yansıması: *Oñul-/Oñal- ve Sağal- Fiilleri Üzerine. Söylem Filoloji Dergesi* 10(2): 1259 – 1283.
- Gürgün, Hasan. 2025. *Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları ve Karabalgasun-II Yazıtı'nın Formu. Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi*, 13/42: 257 – 283.
- Hansen Olaf J. 1930. *Zur soghdischen Inschrift auf dem dreisprachigen*

Denkmal von Karabalgasun, Suomalais-Ugrilainen Seura.

- Кононов, А. Н. 1975. "Семантика цветообозначений в тюркских языках". *Тюркологический сборник*, 61.
- Кормушин, И.В. 2008. Тюркские Енисейские эпитафии: грамматика, текстология. Москва: Наука.
- Li Y.-S. 2017. *Türk Dillerinde Akrabalık Adları*. Türk Dil Kurumu Yayınları. Ankara.
- Малов, С. Е. 1951. *Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования*. Москва: АН СССР.
- Mert, O. 2009. *Ötüken Uygur Dönemi Yazıtlarından Tes, Taryat, Şine Us*. 102 – 103. Ankara: Belen Yayıncılık.
- Moriyasu, T., Y. Yoshida, A. 1999. Katayama. Barugasun hibun [Karabalgasun Inscription], in *Mongorukoku genzon iseki, hibun chōsa kenkyū hōkoku* [Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998], ed. Takao Moriyasu and Ayudai Ochir (Toyonaka: The Society of Central Eurasian Studies), 209 – 224.
- Тоғай Мурод. 2018. *Танланган асарлар: Романлар, қиссалар*. Тошкент. Муслмонқулов, Р. 1970. *Саъж ва сайри тарихин он дар насри тожик*. Душанбе.
- Ölmez, M. 1999. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Ögeler (3), *Türk Dilleri Araştırmaları*, 59.
- Ölmez, M. 2012. *Orhon-Uygur Hanlığı Dönemi Moğolistan'daki Eski Türk Yazıtları*. 238 – 239. Metin-ÇeviriSözlük, Ankara: Bilgesu.
- Özyetgin, A. Melek. 2001. *Ebû Hayyân Kitâbu'l-İdrâk li Lisâni'l-Etrâk, Fiil: Tarihi-Karşılaştırmalı Bir Gramer ve Sözlük Denemesi*. Ankara: Köksav Yayınları.
- Osawa, T. 1999. "Qara Balgasun Inscription II." *Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998* (ed. Moriyasu, T., Ochir, A.), 143 – 145. Osaka.
- O'TIL – *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2007. III. Тошкент: ЎЗМЭ.
- O'XSHL – *Ўзбек халқ шевалари луғати*. 1971. Тошкент: Фан.
- QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" S. Qohira nusxasi (Dâru'l-kutub va'l-vasâiki'l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).
- QBN – Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" B. Namangan nusxasi (Farg'ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi 1809).
- QBV – Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).
- Rasanen, M. 1969. *Versuci eines etymologiscien Wörterbucis der Turksprachen*. Lexiea Societatis Fenno-Ugricae, Helsinki.
- Roux Jean-Paul. 2002. *Türklerin ve Moğolları Eski Dini, (Çev.: Prof. Dr Aykut Kazancıgil), Kabcacı Yayınlan*. İstanbul.
- Schlegel, Gustaaf. 1896. *Die chinesische inschrift auf dem uigurischen denkmal in Kara Balgassun*, Helsingfors, Société finno-ougrienne.
- Sertkaya, O. F., Alyılmaz, C., Battulga, T. 2001. *Moğolistan'daki Türk Anıtları Projesi Albümü*. Ankara: TİKA Yayınları.

- Sertkaya, Osman Fikri. 1999. "Eski Türklerin Kağan Seçimi Üzerine Göktürk Yazıtlarındaki İki Ata Sözü". *İlmî Araştırmalar: Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri*. S. 8: 233 – 240.
- Şirin, H. 2015. Bombogor Inscription: Tombstone of a Turkic Qunçuy ("Princess"). *Journal of the Royal Asiatic Society* 26(3):1 – 9.
- Şirin, H. 2015. *Kül Tigin yazıtı – notlar*. Bilge kültür sanat. İstanbul.
- Şirin, H. 2016. *Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi*. TDK yayınları. Ankara.
- Tekin, Talat. 1988. *Orhon Yazıtları*, TDK Yayınları. Ankara.
- Tekin, T. 2000. *Orhon Türkçesi Grameri*. Ankara: Sanat Kitabevi.
- Токүрөк, Насер. 2018. *Altun Yaruk Sudur IV. Tegzinç (Karşılaştırmalı Metin Yayını)*. Ankara: TDK Yayınları.
- Шинэхүү, М. 1979. "Новый памятник рунической письменности уйгурского Карабалгасуна". *Олон Улсын Монголч Эрдэмтний III их хурал, Боть-3, Улаанбаатар*, – X. 301 – 305.
- Шинэхүү, М. 1980. "Орхон-Сэлэнгийн руни бичгийн шинэ дурсгал". *Археологийн Судлал, Studio Archaeologica Instituti Historiae Academiae Scientiarum Reipublicae Populi Mongolici*. Томус-8, Fasc. 1, Улаанбаатар, X. 42 – 43.

Karabalgasun II inscription of the Uyghur Khaganate: literary function of lexical units

Ma'rufjon Dustmurodov¹

Abstract

This article highlights the historical, linguistic and literary significance of the Second Karabalgasun Inscription, created during the Uyghur Khaganate. Along with the place of discovery, writing system, language and genre features of the monument, the main attention is paid to the sentence, which is essentially close to a poetic form, given through the contrast of realities in the text – antithesis. The article puts forward scientific relations on the effective presentation of the state, people's defense and moral ideas reflected in the inscription, the attitude of a person to birth, life and death through artistic means. It also highlights the role of the inscription in studying the lexicon and sentence structure of the ancient Turkic-Uyghur language.

¹ Ma'rufjon M. Dustmurodov – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor. Independent researcher at TSUOS.

E-mail: maruf_dust@mail.ru

ORCID: 0009-0003-4954-9504

For citation: Dustmurodov, M. M. 2025. "Karabalgasun II inscription of the Uyghur Khaganate: literary function of lexical units". *Golden scripts* 4: 76 – 98.

Key words: *Turkic-runic inscriptions, Uyghur Khaganate, Karabalgasun II Inscription, epitaph, saj' (rhyme in prose), antithesis, ancient Turkic language.*

References

- Abdurahmonov, A. "Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. 1-qism. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turkiy-adabiyotning-qadimiy-qatlamlari-birinchi-qism.html>
- Alimov, Rysbek. 2015. "II. Karabalgasun Yazıtı", *Modern Türklük Araştırmaları Dergisi* Cilt 12(4). 27 – 38.
- Arat, Reşid Rahmeti. 1947. *Kutadgu Bilig Metin*. İstanbul: Millî Eğitim Basımevi
- Argunşah, Mustafa ve Güner, Galip 2015. *Codex Cumanicus*. Ankara: TDK Yayınları.
- Barfield, T. 2009. *Opasnaya granitsa: kochevnye imperii i Kitay* (221 g. do n. e. – 1757 g. n. e.). 18 – 19. Per. D. V. Rxllyadeva, V.B. Kuznesova; nauch. red. i pred. D. V. Rxllyadeva. SPb.
- Barutcu, Özönder Sema. 2001. "Eski Türk Çağı Yazıtları: II. Kara Balgasun Yazıtı", *KÖK Sosyal ve Stratejik Araştırmaları Dergisi*, sayı III/1: 179 – 183.
- Bazilhan, N. 2005 *Kazakistan tarihı tuwralı turki derektmeleri*, II tom. 152 – 193. Almatı: Dayk-Press.
- Boboyorov, G'. 2018. *G'arbiy Turk xoqonligi davlat tuzumi*. Toshkent: Yangi nashr.
- Bold, L. 2000. *Orhon Biçgiyn Dursgal I*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjele Uhaanı Akademi. 248 – 257.
- Bold, L. 2006. *Orhon Biçgiyn Dursgal II*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjele Uhaanı Akademi. 249 – 254.
- Bold, L., Tseveendorj D. 1990. *BNMAU-ın Nutag Dah' Hadnı Biçees: Türeg Biçgiyn Dursgal*), Ulaanbaatar: Ulsın Hevleliyn Gasar. 126 – 127.
- Clauson, G. 1972. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University.
- DLT – Mahmud Koshg'ariy. 1960 – 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit-turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. I-III. Toshkent: Fan.
- Donuk, A. 1988. *Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler*. İstanbul.
- Dusmurodov, M. 2025. *O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi*. Toshkent: Lesson Press.
- DTS – *Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Pod red. V. M. Nadelyaeva, D.M.Nasilova, E. R. Tenisheva, A. M. IIIerbaka. L.: Nauka.
- Eraslan, Kemal. 2012. *Eski Uyghur Türkçesi Grameri*. Ankara: TDK Yayınları.
- Ercilasun, Ahmet Bican ve Akkoyunlu, Ziyat. 2014. *Kâşgarlı Mahmud Dîvânı Lugâti't-Türk (Giriş-Metin- Çeviri-Notlar-Dizin)*. Ankara: TDK Yayınları
- Erdal, M. 1991. *Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the*

- Lexicon. Volume: I. – Wiesbaden.
- Gabain Annemarie von. 1956. "Inhalt und magische Bedeutung der alttürkischen Inschriften". *Anthropos*. 537 – 556.
- Giraud, R. 1999. Göktürk İmparatorluğu (çev. İ. Mangaltepe). Ankara: Ötüken Yay.
- Güler, E. 2025. Sağ Yönün Kavramsal Üstünlüğü ve Dile Yansıması: *Oñul-/Oñal- ve Sağal- Fiilleri Üzerine. Söylem Filoloji Dergisi* 10(2): 1259 – 1283.
- Gürgün, Hasan. 2025. Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları ve Karabalgasun-II Yazıtı'nın Formu. *Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi*, 13/42: 257 – 283.
- Hansen Olaf J. 1930. *Zur soghdischen Inschrift auf dem dreisprachigen Denkmal von Karabalgasun*, Suomalais-Ugrilainen Seura.
- Kononov, A. N. 1975. "Semantika svetooboznacheniy v tyurkskix yazыkax". *Tyurkologicheskij sbornik*, 61.
- Kormushin, I.V. 2008. Tyurkskie Yeniseyskie epitafii: grammatika, tekstologiya. Moskva: Nauka.
- Li Y.-S. 2017. *Türk Dillerinde Akrabalık Adları*. Türk Dil Kurumu Yayınları. Ankara.
- Malov, S. Ye. 1951. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Teksty i issledovaniya*. Moskva: AN SSSR.
- Mert, O. 2009. *Ötüken Uygur Dönemi Yazıtlarından Tes, Taryat, Şine Us*. 102 – 103. Ankara: Belen Yayıncılık.
- Moriyasu, T., Y. Yoshida, A. 1999. Katayama. Barugasun hibun [Karabalgasun Inscription], in *Mongorukoku genzon iseki, hibun chōsa kenkyū hōkoku* [Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998], ed. Takao Moriyasu and Ayudai Ochir (Toyonaka: The Society of Central Eurasian Studies), 209 – 224.
- Tog'ay Murod. 2018. *Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar*. Toshkent.
- Musulmonqulov, R. 1970. *Sa'j va sayri tarixin on dar nasri tojik*. Dushanbe.
- Ölmez, M. 1999. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Ögeler (3), *Türk Dilleri Araştırmaları*, 59.
- Ölmez, M. 2012. *Orhon-Uygur Hanlığı Dönemi Moğolistan'daki Eski Türk Yazıtları*. 238 – 239. Metin-ÇeviriSözlük, Ankara: Bilgesu.
- Özyetgin, A. Melek. 2001. *Ebû Hayyân Kitâbu'l-İdrâk li Lisâni'l-Etrâk, Fil: Tarihi-Karşılaştırmalı Bir Gramer ve Sözlük Denemesi*. Ankara: Köksav Yayınları.
- Osawa, T. 1999. "Qara Balgasun Inscription II." *Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998* (ed. Moriyasu, T., Ochir, A.), 143 – 145. Osaka.
- O'TIL – *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2007. III. Toshkent: O'zME.
- O'XSHL – *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent: Fan.
- QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. "*Qutadg'u bilig*" S. Qohira nusxasi (Dāru'l-kutub va'l-vasāiki'l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).
- QBN – Yusuf Xos Hojib. "*Qutadg'u bilig*" B. Namangan nusxasi (Farg'ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi 1809).

- QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).
- Rasanen, M. 1969. *Versuci eines etymologiscien Wörterbucis der Turksprachen*. Lexiea Societatis Fenno-Ugricae, Helsinki.
- Roux Jean-Paul. 2002. *Türklerin ve Moğolları Eski Dini*, (Çev.: Prof. Dr Aykut Kazancıgil), *Kabalıcı Yayınları*. İstanbul.
- Schlegel, Gustaaf. 1896. *Die chinesische inschrift auf dem uigurischen denkmal in Kara Balgassun*, Helsingfors, Société finno-ougrienne.
- Sertkaya, O. F., Alyılmaz, C., Battulga, T. 2001. *Moğolistan’daki Türk Anıtları Projesi Albümü*. Ankara: TİKA Yayınları.
- Sertkaya, Osman Fikri. 1999. “Eski Türklerin Kağan Seçimi Üzerine Göktürk Yazıtlarındaki İki Ata Sözü”. *İlmî Araştırmalar: Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri*. S. 8: 233 – 240.
- Şirin, H. 2015. Bombogor Inscription: Tombstone of a Turkic Qunçuy (“Princess”). *Journal of the Royal Asiatic Society* 26(3):1 – 9.
- Şirin, H. 2015. *Kül Tigin yazıtı – notlar*. Bilge kültür sanat. İstanbul.
- Şirin, H. 2016. *Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi*. TDK yayınları. Ankara.
- Tekin, Talat. 1988. *Orhon Yazıtları*, TDK Yayınları. Ankara.
- Tekin, T. 2000. *Orhon Türkçesi Grameri*. Ankara: Sanat Kitabevi.
- Tokyürek, Hacer. 2018. *Altun Yaruk Sudur IV. Tegziñç (Karşılaştırmalı Metin Yayını)*. Ankara: TDK Yayınları.
- Shinexyy, M. 1979. “Noviy pamyatnik runicheskoy pismennosti uygurskogo Karabalgasuna”. *Olon Ulsyn Mongolch Erdemtniy III ix xural, Bot-3, Ulaanbaatar*, X. 301 – 305.
- Shinexyy, M. 1980. “Orxon-Selengiyn runi bichgiyn shine dursgal”. *Arxeologiyn Sudlal, Studio Archaeologica Instituti Historiae Academiae Scientiarum Reipublicae Populi Mongolici*. Tomus-8, Fasc. 1, Ulaanbaatar, X. 42 – 43.

MATN

Muhammad Rahimxon II (1864 – 1910) va uning saroy adabiy muhiti¹

Aftondil Erkinov²

Qisqacha mazmuni

Xiva xonligida madaniy hayot XIX asr oxiri – XX asr boshlari, ya'ni Muhammad Rahimxon II (1864 – 1910) davriga kelib ancha jonlandi. Bu Xiva xonligiga asos solgan Qo'ng'irotlar (1804 – 1920) hukmronligidagi san'at va adabiyotning eng yuksalgan davri edi. Muhammad Rahimxon II Firuz taxallusi bilan she'rlar yozib, devon tuzgan [Barthold 24 – 25]. U o'z hukmronligi davrida ko'plab madaniy ishlarga homiylik qilgan. Xiva shahrida bir necha arxitektura yodgorliklari ham ayni shu vaqtda bunyod bo'lgan. Firuz saroyida ko'plab xattotlar, kotiblar, umuman qo'lyozma tayyorlovchilar faoliyat olib borganlar. Uning buyrug'i bilan yuzdan oshiq asarlar arab, fors va turk tillaridan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan, yuzlab qo'lyozma kitoblar ko'chirilgan. Xivaga 1908-yili tashrif buyurgan sharqshunos A. N. Samoylovich (1880 – 1938) Muhammad Rahimxon II saroyi kutubxonasi bilan tanishadi [Самойлович 1909, 5 – 8]. U bu kutubxonada o'zi ko'rgan qo'lyozma va toshbosma asarlarning tavsifi va ilmiy qiymatini qayd etib o'tadi [Самойлович 1981, 74 – 82].

1908-yili Firuzning buyrug'i bilan Xiva saroyi shoirlari yetakchisi Ahmad Tabibiy (1868 – 1910) "Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy" (yana bir nomlanishi: "Majma'yi shuaro shohiy payravi Firuz") bayozini tuzadi [Мажмуаи шуарои Фирузшоҳий №1691; Баёний 1992; Маткаримова 2007]. A. Samoylovich mazkur majmuaning toshbosma nashri tavsifiga ham alohida maqola bag'ishlagan. "Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy"da Firuzning 101ta g'azaliga Xiva saroyidagi 32 shoirning 3231 payrav g'azali

¹ Mazkur maqola Gerda Xenkel (Germaniya) (Gerda Henkel, Deutschland) fondi loyihasi (AZ 10/ZA/08) doirasida amalga oshirilgan.

² Erkinov Aftondil Sodirxonovich – filologiya fanlari doktori, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi.

E-pochta: aftandilerkinov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9284-4443

Iqtibos uchun: Erkinov, A. S. 2024. "Muhammad Rahimxon II (1864 – 1910) va uning saroy adabiy muhiti". *Oltin bitiglar* 4: 99 – 127.

keltirilgan [Hofman 1969]. Bunda to'plamdagi jami g'azallar 3332 donani tashkil etadi. Tilga olingan o'ttiz ikki shoir Firuzning farzandlari, yaqin qarindoshlari yoki saroydagi amaldorlar edilar. Ya'ni, Muhammad Rahimxon II o'z saroyi muhitida davlat ishlari bilan shug'ullanuvchi mansabdorlarni ham badiiy ijod qilishlarini, ma'rifatli bo'lishlarini istagan. Sababi – u o'z saroyi muhitini temuriylar davriga, aniqrog'i, ularning madaniy uyg'onish zamonini – Husayn Boyqaro (1469–1506) hukmronligi davridagi Hirot muhitiga o'xshash bo'lishini istagan. Buning uchun madaniyat va san'at homiysi Husayn Boyqaro shaxsiyati shoh va shoir sifatida o'rnak bo'la olardi. Yana Alisher Navoiy (1441–1501) va Abdurahmon Jomiy (1414 – 1492) kabi taniqli shoirlar yaratgan adabiy muhitni Xiva saroyida qayta jonlantirish maqsad qilib olingandi [Нусратулла Жумахўжа, Адизова 1994; Erkinov 1994].

Musulmon Sharqi adabiy an'analariga ko'ra, masalan, O'rta Osiyoda shoirlik yo'liga kirgan shaxs klassiklar, jumladan, fors klassiklari Hofiz Sheroziy, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy va Jomiyga, turkiy adabiyot klassiklaridan Navoiy yoki Fuzuliy she'rlariga ergashib she'r bitishi kerak bo'lgan. Biroq "Majmuati shuaroyi Feruzshohiy" da Feruzning g'azallariga Xiva saroyidagi shoirlar nazira-javob g'azal yozganlar. Feruz she'rlarning aksariyat qismi kelib chiqishiga ko'ra o'zbek mumtoz adabiyotining eng yirik vakili Alisher Navoiy she'rlariga ergashib yaratilgan. Buni Feruz she'rlarining barchasi eski o'zbek tilida bitilgani ham ko'rsatadi. Shu sababdan Feruz madaniy jihatdan temuriylar, aniqrog'i, Husayn Boyqaro davri bilan saroyi muhitini yaqinlashtirish va tenglashtirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Sharqda hukmdorlar o'z qudratlarini ko'rsatish uchun boshqa mamlakatlar hududlarini harbiy yurishlar bilan bosib olishga harakat qilar edilar. Biroq buni uddasidan chiqish oson emasdi. 1873-yili Xiva xonligi Rossiya tomonidan bosib olinib, vassal davlatga aylantirildi. Shu davrdan boshlab, Muhammad Rahimxon (1873 – 1910) hokimiyati oxirigacha (36 yil) Xiva saroyida Rossiya davlati maslahatchilari mavjud bo'lib, Muhammad Rahimxon ular bilan maslahatlashib ish ko'rishga majbur edi. Tarixchilar shu davrda Firuz xonanishinlikka berilganligini qayd qilganlar. Mana shunday sharoitda u she'riyatga beriladi va saroyida she'r va musiqa kechalarini uyushtiradi.

Bu davrda Xiva xonligidagi madaniy muhitni Husayn Boyqaro davriga o'xshatishga intilish mavjud bo'lsa-da, ko'p jihatlar 19 asr boshi Qo'qon adabiy muhiti bilan musobaqalashish asosiga qurilgan

edi. Chunki temuriylarga taqlid aynan Qo‘qon xonligidan boshlagandi. Umarxon buyrug‘iga ko‘ra 1821-yili tuzilgan “Majmuayi shoiron” bayozidayoq, Umarxon o‘z muhitini Husayn Boyqaro va Navoiy davriga tenglashtirishga harakat qilgandi. Bu to‘plamda 70dan ortiq shoirning she‘rlari berilib, ularning asosiy qismi Umarxonga bag‘ishlangan yoki uning she‘rlariga ergashib yozilgandi. “Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy”ni tuzishda “Majmuai shoiron” strukturasi asos qilib olingandi.

A. Samoylovich uchrashuv chog‘ida “Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy”ni tuzuvchisi bo‘lgan Ahmad Tabibiy Xiva saroyi shoirlarining barchasi Alisher Navoiy she‘rlariga taqlid qilsalar-da, birortasi ham Navoiy mahoratiga o‘xshash darajaga ega emasligini ta’kidlaydi. Mazkur uchrashuvdan so‘ng A.Samoylovich, agar shunday xulosaga kelingan bo‘lsa, demak, O‘rta Osiyoda yangilanish davri boshlangan degan fikrga keladi [Самойлович 1909].

Ko‘rib o‘tilganlar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin: 1873-yili Xiva xonligi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi va vassal davlatga aylandi. Muhammad Rahimxon II o‘z siyosiy faoliyatida erkin emas edi va 1873 – 1910-yillar mobaynida – 36 yil uzlatga chekingan hukmdorga aylandi. Bunday sharoitda u asosiy e‘tiborini Xiva saroyi madaniy muhitini rivojlantirishga qaratdi: she‘riyat va musiqa kechalari uyushtirdi. “Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy”ni tuzishga buyruq berdi. O‘ttiz ikki shoir Firuz boshchiligida badiiy ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi. Firuz o‘zining qudrati qay darajaga yetganini davlatidagi madaniy yuksalish orqali namoyish qilmoqchi bo‘ldi.

“Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy” to‘plamining asosiy qismini Firuz g‘azallariga bitilgan she‘rlar egallagan. Quyida “Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy”dan “ohista-ohista” radiflik g‘azallarni asliyat yozuvida taqdim etamiz.

Adabiyotlar

- Диван Амира.* 2019. Факсимиле Дивана кокандского хана Умараиз библиотеки хивинского наследника Ибадуллы-туры. Составитель и вступительная статья: Зайцев И.В. Москва: ИВ РАН.
- Нусратулла Жумахўжа, Адизова И. 1994. “Феруз адабий муҳити”. *Ўзбекистон адабиёти ва санъати* 27, 3.
- Мажмуатуш-шуарои Фирузшоҳий.* ЎзБРШИ қўлёзмаси, 1-фонд. №1152. 1326 йил 3 сафари. 1908 йил 8 мартада Муҳаммад Ёқуб Девон Харрот ибн уста Қурбонниёз Хоразмий томонидан кўчирилган.
- Маткаримова, С. 2007. *Табибий – тазкиранавис* (“Мажмуаи си

- шуарои пайрави Ферузшоҳий” асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент.
- Мухаммад Юсуф Баёний. 1992. *Шажарайи Хоразмшоҳий*. Нашрга тайёрловчи Н.Жумахўжа, И.Адизова. Тошкент.
- Мухаммад Раҳимхон Феруз. 1994. *Элга шоҳу ишққа қул*. Девон. Нашрга тайёрловчи Г.М.Исмоилова. Тошкент.
- Самойлович, А.Н. 1909. “Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханство в 1908 году”. *Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях*. 1 – 15. №9. Санкт-Петербург.
- Самойлович, А.Н. 1981. “Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе. II. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня”. *Известия Академии наук Туркменской ССР. Серия общественных наук*. №1. 74 – 82.
- Самойлович, А.Н. 1909. “شعراشاهی پیرو فیروز” – Сборник 30 царских поэтов, сопутствующих Фируз`у. Хива, 1909 г. 1638 стр. in folio”. Записки восточного отделения императорского русского Археологического общества. Том 19, 0198 – 0209. *Собрание восточных рукописей*. 1954. Том II, Ташкент.
- Ўзбек адабиёти тарихи. 1978. IV жилд, Тошкент.
- Эркинов, А. 2013. “Российская империя и Хивинское ханство (русские: ученый А.Н. Самойлович и путешественник В.Г.Ян в хивинском дворце в начале XX в.)”. *Проблемы востоковедения* 3(61): 84 – 91.
- Эркинов, А. 2012. “Культурный перфекционизм в Хивинской придворной среде при Мухаммад Рахима-хане II как способ противостояния режиму российского протектората (1873–1910)”. *История и культура Средней Азии*. 35 – 69. Изд. Б.Бабаджанов, Й.Кавахара. Токио.
- Эркинов, А. 2010. “Поездка А.Н.Самойловича в Хивинское ханство в 1908 году и оценка им литературной среды”. II Востоковедческие чтения памяти Н.П.Остроумова. *Сборник материалов*. 116 – 126, 370 – 383. Ташкент.
- Эркинов, А.С., Полвонов, Н.Т., Аминов, Х.А. 2010. *Мухаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси фехристи*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Barthold W. [Brill M.L.]. *Khīwa*. EI², Vol.V. P. 24 – 25.
- Eckmann J. Die tschaghataische Literatur. In: *Philologiae Turcicae Fundamenta*. Vol.II. Wiesbaden, 1964. P.390-391.
- Erkinov, A. 2010. “A.N.Samojlovich's visit to the Khanate of Khiva in 1908 and his assessment of the literary environment”. *International Journal of Central Asian Studies* 14: 109 – 146. Editor in Chief Choi Han-Woo).
- Erkinov, A. 2011. “How Muhammad Rahim Khan II of Khiva (1864 – 1910) cultivated his Court Library as a means of resistance against the Russian Empire”. *Journal of Islamic Manuscripts* 2: 36 – 49.

- Erkinov, A. 2024. "Striving for Cultural Perfection at the Khivan Royal Court under Muhammad Rahim Khan II as a Means of Resistance to the Russian Protectorate Regime". *Proceedings of the International Conference: Reassessing the Heritage of Khoja Ahmet Yasawi*. 163 – 193. Turkistan, Kazakhstan. Ed. M.E. Kilic, M. Sadykbekov. prep. for publication by A. Muminov, N. Dukenbaev. Istanbul: IRCICA.
- Erkinov, A. 2008. "Timurid mannerism in the literary context of Khiva under Muhammad Rahim-khan II (Based on the anthology *Мажму‘а-йи шу‘ара-йи Фируз-шахи*)/Тимуридский маньеризм в литературной среде Хивы при Мухаммад Рахим-хане II (на примере антологии "Маджма‘-йи шу‘ара-йи Фируз-шахи)". *Bulletin of IICAS. Volume 8. Вестник МИЦАИ*. 8: 58 – 65.
- Erkinov, A. and Vahidov. Sh. 1999. "Une source méconnue pour l'étude de la production de livres à la cour de Muhammad Rahim II (Khiva, fin XIX^e s)". *Patrimoine manuscrit et vie intellectuelle de l'Asie centrale islamique, [Cahiers d'Asie Centrale 7]*. A. Muminov, F. Richard and M. Szuppe (eds.). IFEAC- Édisud, Tashkent – Aix-en-Provence, 175 – 193.
- Hofman, H.F. 1969. *Turkish Literature a bio-bibliographical survey*. Section III, part I. Vol. 3, 6. Utrecht.

**“Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy”dagi “Ohista-ohista”
radifli g‘azallar (Majmuat ush-shuaroi Firuzshohiy.
Qo‘lyozma № 1152. B.1360-1390.)**

مثنوی

شاهنشاه عالی هم نیک زاد
که بار دور عدالاتی حددین زیاد
سخندان لیغ ایچرا آنکا یوق عدیل
کیلیب دور غزل ایچرا نطقی جمیل
سختاوتدا مانند یوق هیچ آنکا
قیلور بارچه ایل مطلبی نی روا
خصوصا بیلور فضل ایلی قدرینی
بلند ایلاکای علم ایلی صدرینی
بو وجه ایله عصری دا صبح مسا
بولوب جمله فضل اهلی سرتاپیا
قصابد دییان مدحیدا نظم اهلی
دعاسی غه گویا همیشه تیلی
مونی دیدی اول خسرو نکته دان
که پروانکا بولدی اهل جهان

غزل فیروز شاهی

منکا رحم ایلاب اول شیرین زبان آهسته آهسته
یتوشدی باشیم اوزره ناکهان آهسته آهسته
فراقیدا قرار غان کوزلاریم نی قیلغالی روشن
آچیب رخسارهء خورشید سان آهسته آهسته
ایدیم هجرانی دردی شدتیدین اولکودیک بیمار
یتوردی وصلی دین صحبت روان آهسته آهسته
مسیحا معجزین جانبخش لعلی دین قیلیب ظاهر
اولوک جسمیم کا بیردی تازه جان آهسته آهسته
سوروب دلدارلیغ رسمی بیله حالی پریشانیم
قیلیب آیین دلبرلیک عیان آهسته آهسته
دیدى کای عاشق زاریم ملال درد هجرانیدین
بولوب سن اسروزار ناتوان آهسته آهسته
بودم وصلیم بیله کامینک روا ایلارکه کیلمیش من
مقامینکغه بارای ایلدین نهان آهسته آهسته
اگر ایستارسین اوپماکلیک نی اینک جا نفزا لعیم
قوچارسن قوچ بیلیم اینک میان آهسته آهسته
نچه کون درد هجرانیم ارا صبر ایلادینک پیشه
بول ایمدی وصلیم ایچرا شادمان آهسته آهسته

من اولدم یار لعلی باده سی بیرله بولوب سر مست
